



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT—2006



SULTON HOSHIM

ILONLI QO'RIQ

Qissa



**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006**

84(5Xit) Osiyo adabiyoti
S 96 2527222


*Uyg'urchadan
Habibulla Zayniddinov
tarjimasi*

HO 32171
Og.

Sulton Hoshim.

Ilonli qo'riq: Qissa/O'smirlar kutubxonasi.—T.:
“Sharq”, 2006. — 64 b.

O'zga sayyoraliklar hamisha Yerga o'z hukmlarini o'tkazib kelganlar.
Yerliklar esa ularning oldida ojiz qolaverganlar. Ammo yerlik olimlar
shunday qurilma yasaydilarki o'zga sayyoraliklarning ta'sir kuchi kesilib
qoladi. Hamma mashmasha shundan keyin boshlanadi... Qissa juda
o'qimishli, ravon tilda...
20/666 A



10

BBK.84 (5Xit)

© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2006



I

Zamin alanga ichida edi. Olislardan gurillagan, qarsilab yorilgan, dahshatli vulqondek otilib chiqayotgan yong'in ko'k uzra o'rlar, chor atrofga olov selini purkab, yoyilib kuchli otash o'chog'ini hosil qilardi. Osmonni qoplagan quyuq tutun qora bulutdek hammayoqni zimis-tonga aylantirgan, misli ko'rilmagan dahshatli yong'inning shulasidan falak ham qonga bo'yalgandek.

U qora terga cho'mib, joni halqumiga kelganda paydo bo'ladigan qo'rquv oldida g'ira-shira ko'ringan cho'qqi sari jonining boricha telbalarcha yugurardi. Haybatli yong'in har tomonga cho'zilgan uzun qizil tillari bilan yo'lida duch kelgan jami narsa borki, hammasini kulga aylantirib, shitob bilan bostirib kelmoqda edi. U jon holatda cho'qqiga tirmashdi. Uning yuz-ko'zi, qo'l-oyoqlari qonga belandi. Ammo u og'riqni sezmasdi. U faqat cho'qqiga chiqib olib, yong'inning kuydirib kul qilihidan saqlanib qolishnigina o'ylardi.

U cho'qqiga chiqib oldi va holsizlanganidan tik turolmay o'zini yerga tashlab, chalqancha yotdi. Biroq badanining qizib ketayotganiga chiday olmay, shu zahotiyoy qo'rnidan sakrab, turib ketdi. Yong'in cho'qqiga ham tirmashib, uning atrofida quyundek aylanardi. U borgan sari torayib borayotgan alanga halqasiga qarab, umidsizlandi. «Ey xudoyo, xudovandi karim, menga o'zing rahm qil» dedi u, qo'llarini osmonga ko'tarib. Shu asnoda nimadir uning qo'llaridan yengilgina tutib olib, alanga girdobidan olisga — osmon bo'shilig'iga ko'tarib chiqib ketdi. U yuqoriga qarayolmasdi. Ammo bora turib qanotlarning silkinish ovozini eshitgandek, yana go'zal bir qizning siymosini ko'rgandek bo'lardi. Shu tarzda talay yer-jahonni qoplagan yong'indan asar ham qolmagandi. Uning ostida yam-yashil vodiylar ko'rindi. «Qutuldim, — dedi u ichida, — lekin meni ko'tarib ketayotgan qanday narsa ekan?» U oxirini o'ylashga ulgurmadi. Uni qisib tutib turgan qo'l bo'shab ketdi. U yerga qarab otilgan toshdek tushib bormoqda. U baqirib-



chaqiradi, oyog‘i yumshoq chamanzorlikka yengil tekkan-da ham o‘zini bilmay tipirchilardi...

Usmon afandi ikki qo‘li ko‘ksi ustida chatishtirilgan, boshi yostiqdan tushib ketgan holda cho‘chib, uyg‘ondi. U darhol o‘ziga kelolmadi. Boshini yostiqqa o‘nglagancha, shiftga tikilgancha yana biroz yotdi. Yuragi esa qat-tiq urayotgandi. U o‘z uyida — karavotda yotganligini bilib, do‘zax azobidan qutulganidek chuqur uf tortdi, so‘ng tirsaklariga tayanib ko‘tarilib o‘tirdi.

— Qora bosibdi, qo‘lim yuragimning ustida bo‘lib qolibdi, — dedi uy ichidagi nim qorong‘ilikka qarab, — shom vaqtida osongina qora bosadi, deb eshitgandim, o‘zim ham bemahal uxbab qolibman.

U asta o‘rnidan turib chiroqni yoqdi. Oyoq-qo‘llari esa hali hanuz titrab turardi. Butun a’zoyi badani terlab ketgandi. U yuvinish xonasiga kirib, suvni sharqiratib qo‘yib yuvindi. Sovuq suv uning asablarini asliga keltirdi. U ko‘ylagini kiyib, yozuv stolining oldidagi o‘rindiqqa kelib o‘tirdi.

U stolining bir chetida tartib bilan taxlab qo‘yilgan daftarlarning eng ustidagisini olib varaqlab, kerakli betini topgandan keyin endigina diqqat bilan ko‘z yogurtirib turganda, eshik asta taqilladi. U daftardan ko‘z uzib, ovoz chiqarmasdan yurib, eshik oldiga keldi va kuzatish oynagidan qaradi. Lekin, ko‘ziga ola-yashillikdan boshqa hech narsa ko‘rinmadni. Eshik yana taqilladi. U hozir hamma odamga kasaldek yopishib olgan ehtiyyotkorlik tuyg‘usi bilan zanjirni to‘rt enlik qilib to‘g‘rilab, eshikni qiya ochdi.

— Siz Usmon afandi bo‘lasizmi? — deya so‘radi gav-dasining yarmigina ko‘ringan bir ayol.

— Shunday, men Usmon afandi bo‘laman, xonim.

— Kechirasiz, xonim emas, bekam, deb tuzatdi mehmon, — kirsam bo‘ladimi?

— Albatta bo‘ladi, qani marhamat.

Usmon afandi ayol kishidan shunchalar tortinganidan o‘zidan ranjidi, xijillikni bildirmaslik uchun eshikni tezda ochib, hurmat bilan bir chetga o‘tib turdi.

Xushbichim, eng yangi urfda tikilgan ko‘ylakka yarashib ketgan qiz kulimsirab kirib keldi. Usmon afandi shoshib joyidan qimirlayolmay qoldi, qizning bag‘oyat go‘zalligi uni es-hushini yo‘qotib qo‘ygudek darajaga keltirib qo‘ygandi.



— Sizni ovora qilib qo'ydim, uzr, Usmon afandi, — dedi qiz uning boshidan oyog'igacha tezda ko'z yugurtirib. Uning shishadek yargirab turgan yuzida o'zidan qanoatlanganligini ifodalaydigan shiringina bir tabassum balqidi, — kechirasiz, o'zimni tanishtirmadim. Ismim Zamira, «Qiziqarli xabarlar» gazetasining muxbir bo'laman.

Qiz qo'lidagi kaftday keladigan kichginagina portmanidan yashil guvohnomani chiqarib uzatdi. Usmon afandi qizning bo'y-bastidan uning muxbir ekanligiga shubha qilmaganidan hujjatga qaramasdanoq qizni ichkariga taklif qildi:

— Hojati yo'q, Zamiraxon, usiz ham sizga ishonoman... Men «Qiziqarli xabarlar»ni juda yaxshi ko'rib teztez o'qib turadiganlarning biriman...

— O'tirsam bo'ladimi, Usmon afandi?

— Kechirasiz, men sizni o'tirishga taklif qilishni ham unutib qo'yibman... Bemalol. Qani, marhamat, Zamira bekam.

Zamira beka Usmon afandi taklif qilgan o'rindiqqa kelib o'tirdi.

— Ehtimol siz bu bekam kech kirib qolganda meni qanday yumush bilan qidirib kelganikin, deb o'ylayotgandirsiz, shundaymi? — dedi qiz muxbirlik guvohnomasini portmaniga solayotib.

Ochiq ko'ngillik bilan aytilgan bu so'z Usmon afan-dining hushini joyiga keltirgandek bo'ldi.

— Unday emas, bekam, aksincha, sizni ilgari ko'rma-gan bo'lsam ham, tanishish sharafiga ega bo'lib turgan-imdan bag'oyat xursandman, — dedi u o'rniga kelib o'trib.

— Sizdan iltimos, agar malol kelmasa meni yaxshisi bekam demay oddiygina Zamira desangiz.

— Agar shunday atash sizga ma'qul bo'lsa, iltimosi-nizni rad etolmayman. Ammo, meni ham oddiygina qilib Usmon aka deb atashingizni so'rayman.

— Shunday bo'lgani yaxshi. Kishi o'zini erkin his etadi, bo'pti kelishdik-a?

— Kelishdik.

— Kechirasiz Usmon aka, — dedi qiz xursandlik bilan kulimsirab, — biz muxbirlar mana shunday har qanday yerga — mayli qarshi olsin-olmasin kirishga odatlanib ketganmiz. Kirib olsakgina muxbirlik kasalimiz qo'zib

tinchlik bermaydi. Meni bu narsalar, — qiz stoldagi taxlog'liq turgan daftarlarga boshi bilan imo qilib, — qiziqtirib qoldi. Menimcha siz kattaroq bir narsa yoza-yotganga o'xshaysiz. Savolim ortiqcha bo'lsa javob bermasangiz ham ranjimayman.

— Siz meni noto'g'ri tushunibsiz, Zamira. Men yozuvchi emas, o'qituvchiman.

— Buni bilaman. Lekin yozuvchilik ham qo'lingizdan keladi. «Sirli signal» hikoyaning hajmi jihatidan kichik bo'lsa-da, biroq o'sha asaringiz bilan fan-texnika sohasiga haqiqatdan ham bir signal bergen edingiz.

— Men bor-yo'g'i bir martagina yozib ko'rgan edim, balki oxirigisi ham shu bo'lib qolishi mumkin, hayolimga kelgan bir fikr qo'limga qalam olishga majbur qilgan edi, xolos. Siz qiziqqan bu daftarlar o'quvchilarning topshiriq daftarlariidir.

— Topshiriq daftarlari?!

— Xato anglamadingiz, Zamira.

— Topshiriq daftarlari! — Zamira hayron qolganligidan o'midan turib, daftarlarni qo'li bilan bosib qo'ydi. — Qiziq, juda qiziq. Ilm-fan kamolatga yetgan XXI asrda yashayotgan odamga XIX, XX asrlardagi o'qish-o'qitish usullariga singib ketgan odatni uchratish nihoyatda qiziq tuyular ekan. Hozir bizdagi o'qish-o'qitish ishlari televizor, elektronli hisoblash mashinasi orqali olib borilayapti. Yuzlab o'quvchi o'qituvchini bir yerga jam qilib olarkan, ya'ni unumi past, vaqt ham behudaga ketadigan ishlarning tugaganiga ancha yillar bo'ldi. Ajab, siz hali ham ortga chekinmoqchi bo'lsangiz...

— Chekinish dedingizmi? Yo'q, men bu fikringizga qo'shilolmayman, — Usmon afandi o'midan dast turib, biroz qizishgan holda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. — Elektron-hisoblash mashinasi yuqori saviyada taraqqiy qilib, yalpi tarzda qo'llanishga boshladi. Buni bizning hozirgi ilm-fan takomillashgan davrimizning bo'y-basti, deyish mumkin. Ammo, maorif xodimlari elektron-hisoblash mashinasi o'quvchilarning, ayniqsa, boshlang'ich, to'liqsiz o'rta maktab o'quvchilarning zehnini ochish yo'lida to'siq bo'lmoqda, deb qarab, yosollar, o'smirlar orasida bu mashinani ishlatmaslik fikrini olg'a surishmoqda. O'zingiz o'ylab ko'ring, bu narsa xuddi usta ko'rmagan shogirddek, yoki bo'lmasa mashq mashq'ulotidan o'tmayoq to'g'ridan to'g'ri elektron-



hisoblash mashinasiga tayanib sayyoralararo uchaman, deganga o'xshagan gap emasmi axir? Yoxud, aksincha, bizning uchuvchilarimiz qattiq mashq va sinovlarni boshidan o'tkazadi.

Zamira kulib qo'ydi. Uning kulgisi yurakni larzaga soladigan yoqimli musiqaga, kulgidan yanada ochilib ketgan nurli chiroyi esa bamisoli gulzorlarga o'xshab ketardi. Unga maftun bo'lib qolgan Usmon afandi bu kulgudan, uning bilinar-bilinmas tebrangan tol chiviqday nozik qomatidan ko'zini uzolmay qoldi.

— Men siz bilan bahslashmoqchi emasman, Usmon aka. Mening bu sohada biladiganlarim nihoyatda oz, — dedi qiz kulgidan to'xtab, — mening esimda qolishicha, dunyoda birinchi bo'lib elektron-hisoblash mashinasi 1946-yili Amerikada dunyoga kelgan ekan. Uning hajmi 300 kub ingliz qurilmasi bo'lib, 170 kvadrat metr maydonni ishg'ol etgan ekan o'shanda. Og'irligi ham 30 tonna bo'lган ekan. Unga 18800 dona vakuum lampa o'rnatilgan ekan. Endi ko'z oldingizga bir keltirib ko'ring-a, shundan keyin biror asrga yaqin vaqt ichida bu mashinaning singib kirmagan sohasi qolmadi hisob. U jamiyatni taraqqiy ettirdi. Bizga hozir 20—30 yil ilgarigi ishlar ibtidoiy narsalardek tuyuladigan bo'lib qoldi. Men ko'rgan hisoblash mashinasining eng kichigi jo'xori donasidek keladi, ehtimol undan ham kichiklari bordir. Elektron-hisoblash mashinasidagi bu taraqqiyotni televizor hamda elektron-hisoblash mashinalari orqali o'qigan o'quvchilardan yetishib chiqqan olimlar yasagan, shubhasiz. Xullas, shuni aytmoqchimanki, elektron-hisoblash mashinasi insonlarning tafakkur iqtidorining, sizning gapingiz bo'yicha aytganda, yosh o'smirlar zehnining ochilishi, taraqqiy etilishini aslo to'sib qololmaydi.

Usmon afandi yurishdan to'xtab qolgandi. Uning nazarida urfdagi kiyimni tanlash, go'zalligi bilan yigitlarni o'ziga rom qilishdan huzurlanish, bo'sh vaqtini oliy darajali raqsxonalardagi rangdor chirog'lari ostida to'lg'anib o'ynab o'tkazishdan boshqani bilmaydigandek ko'ringan bu qizning mantiqli gapi, esda saqlash xotirasi uni hayron qoldirgandi.

— Jim bo'lib qoldingiz-ku Usmon aka, — dedi qiz unga qiya boqib, — yoki gaplarim sizni xafa qilib qo'ydimi?

Usmon afandi Zamiraxonning oldiga kelib ko'zlariga tikildi.



— Men sizdan bunday gaplarni rostini aytsam, sira kutmagan edim, gaplaringiz meni hayron qoldirgan bo'lsa-da, men noqulaylikdan munozarani bas qilish fikriga aslo kelganim yo'q. Menimcha bundan keyin ham ikkovimizning yanada chuqurroq tanishib, o'zaro tushunish hosil qilishimizga mana shu mavzuning o'ziyoq yetarlik imkoniyat yaratib beradi. Biz yana ko'rishib turarmiz, deb o'yayman, Zamira.

— Agar mendan xafsalangiz pir bo'lmasa...

— Nimalar deyapsiz, qaytanga siz men o'ylagandan ham nihoyatda kamtar ekansiz, qizlardagi bunday kamtarlik kishini o'ziga yanada jalb qiladi. Endi ko'nglingizga kelmasa so'ramoqchi edim, siz bu yerga topshiriq dafstarlarini ko'rish uchungina kelmagan bo'lsangiz kerak, albatta.

— «Sirli signal»ni o'qiganimdan keyin, siz bilan tanishishni o'ylab yurgandim. Unda o'rtaga tashlangan fikr meni qiziqtirib qolgandi. Mana tanishib ham oldim, hozir o'zimni o'zim o'ylagandan ham ziyoda ko'ngilchang hisoblayapman. Chunki, siz meni yana yangi bir fikr, topshiriq daftarlariga ega qildingiz.

— Faqat qiziqish yuzasidangina...

— Hamma ish aslida shunday qiziqishdan boshlanadi-da.

— Kech bo'lib qoldi, hali ovqatlanmagan bo'lsangiz kerak?

— Bir bo'lak to'rt bo'lsa yo'q demasdim.

— Nihoyatda g'alati qovushmagan bo'ydoqman. Odatda kechqurungi ovqatni oshxonada yeypman. Shuning uchun birga ovqatlansak deyman, qarshi emasmisiz?

— ...

— Juda yaxshi, bir daqiqa kutib turing, kiyimimni almashtirib olay.

2

Uzun yo'lak bo'ylab ketayotgan navbatchi xodim qadamini asta tashlab borarkan, ro'parasida ko'ziga chalingan teshikka qadalib turib qoldi. U bu yerda eshik borligini bilardi. Orasiga qalnligi 50 santimetrlı po'lat taxta olinib, oldi-orqasi mustahkam etib butunlangan bu eshik ancha-muncha kuchga bardosh berardi. Sirtdan qaraganda bo'rtma gul naqsh etilib suvalgan yo'lak davo-



mida bir teshik bo'lib, odatda bu teshikni payqash qiyin emasdi.

Navbatchi yo'lakning boshidan oxirigacha tashvishlanib qaragach, kissasidan ratsiyani oldi.

— Siz professormisiz? Yerosti ikkinchi qavatining navbatchisi — 3-nomerli uyning eshigi menga ajrab qolgandek ko'rindi, teshik 2—3 millimetrcha keladi. Yo'q, qo'l tekkizganim yo'q. Siz kelguncha bu yerdan bir qadam ham jilmayman.

Professor kechikmadi. Uning yonida tadqiqot ishlari muhofaza qilish vazifasiga tayinlangan, yangidan kelgan harbiy boshliq Nuril shongviy¹ ham bor edi. Teshikni ko'rgan professorning rangi o'zgarib ketdi.

— Siz buni hozirgina payqadingizmi? — deb so'radi u navbatchi xodimdan.

Navbatchi xodim soatiga qarab qo'yib, javob berdi:

— Navbat almashtirganimizga to'qqiz daqiqa bo'ldi. Siz yetib kelguncha besh daqiqa o'tdi. Demak, men buni navbatchilikni o'tkazib olgan to'rt daqiqa ichida payqagan bo'laman, hali yo'lakning u boshiga yetib borganimcha yo'q.

— Javobingizdan shubhalanmasangiz kerak?

— Men o'z vazifamni aniq bilaman hurmatli professor janoblari.

— Buni tundagi navbatchidan aniqlash mumkin, — dedi fuqarocha kiyingan, qaddi-qomati kelishgan Nuril shongviy, — agar hurmatli professor, siz bu uyda qat'iy biror noxush holat yuz bergen, deb qarasangiz eng yaxshisi eshikni ochib ko'raylik.

— Men noxush holat yuz bergen, deb hisoblayman. Shongviy janoblari. Yuz berganda ham nihoyatda og'ir ahvolda yuz bergen, — professor eshik yorig'iga bar-mog'ining uchini tiqib ko'rsatdi, — og'irligi 3—4 tonna keladigan, devor bilan mahkam jipslashib turadigan bunday mustahkam eshikni bir tomonga ko'zga chalinadiganday qo'zg'atish uchun juda katta kuch kerak. Bu yerda qo'zg'atish degan so'zning o'zi aqlga to'g'ri kelmasdi. Yo eshik qisilgan, yoki devor.

— Sizning aytganingizcha bo'lganda, nima uchun eshik yoki devor suvoqlari tushib ketmadiykin?

— Bunday bo'lishi eshik yoki devorning zichligiga

¹ Shongviy — bo'limgan boshlig'i



bog'liqdir. Yorilgan joyi bundan kattaroq bo'lgan bo'lsa, ehtimol, biz yerga tushgan suvoqlarni ko'rgan bo'lar-dik. — Professor kissasidan qalamtaroshini olib ochib, yoriqning qiriga tiqib qo'zg'otdi. Darvoqe, bir necha parcha suvoq eshikdan ajrab to'kilib tushdi, — ko'rdingizmi, men hech qancha kuchanmadim. Yoriqning yuqorida tagigacha o'xhashligiga qarab, ko'rsatgan zarba kuchini birday ta'sir qilgan va ma'lum darajaga borganda nazorat qilingan, deb aytishga to'g'ri keladi. Juda murakkab texnika...

Professor gapining oxirini yakunlamayoq shartta burilib, «juda murakkab...», «nihoyatda xavfli» degan so'zlarni takrorlagancha birinchi qavatga chiqadigan zina tarafga qarab yurib ketdi. Nuril shongviy uning nima qilmoqchi ekanligini tushundi. Eshik ochadigan maxfiy nomer qurilmasi birinchi qavatning bexatar shkafiga o'mashtirilgandi.

Professor nihoyatda tez qaytib keldi. Uning ko'rinishidan qattiq sarosimaga tushib qolganligi shundoqqina ko'rrib turardi. U bir zum qo'llarini uqaladi, iyagini siladi. Kostumining etaklarini tortib qo'ydi. Toqatsizlangan Nuril shongviy ehtiyotkorlik bilan so'radi.

— Ochilmaydi-ku, eshik buzilganmi?

— Yana 25 daqiqadan keyin ochilmasa siz aytgan xulosaga kelishimiz mumkin, — dedi professor unga qaramasdan.

Vaqt bo'ldi. Eshik ovozsiz qo'zg'alib, ustki tomoni devordan ajraldi. Bir parcha qalin po'lat beton taxta xuddi yerga kirib ketayotgandek pastlay boshladi. Uning ustki tomoni pol bilan barobarlashganda, eshik pastlashdan to'xtadi.

Eshikdan biriinchi bo'lib kirgan professor qattiq cho'chidi. Uning chehrasi dokaday oqarib ketgandi. U chor atrofiga cheksiz ajablanish va qo'rquv bilan nazar tashladi. Devorga taqab qo'yilgan o'tga chidamli xavfsiz sandiq — javonlarning bittasi ham ko'rinnasdi. Uy ichi avvalgidek ozoda bo'lib, faqat uning o'rtasida atay supurib yig'ib qo'yandek, ikki-uch hovuch kul kukuni turardi.

— Ey xudo, bu qanday mo'jiza bo'ldi, bu nima degan qo'rqinchli ko'rinish, — professor aqldan ozib qolgandek u devordan bu devorga yugurardi, devorni silardi, shiftga tikilardi. Oxiri u kul kukunining yoniga kelib cho'kkalab

o'tirdi, — kul, hammasi kulga aylanib ketibdi, bizga qol-gani mana shu. Bunday zo'r fojiani bizning nechog'li sez-gir apparatlarimiz ham nahotki, sezolmagan bo'lsa!...

Eshikdan kiriboq yiqlgan sandiqlarni, besaranjom sochilgan narsalarni ko'raman deb o'ylamagan Nuril shongviy professorning zorlanishidan tashvishlanib qoldi.

— Siz bu ishni yuqori texnika bilan qurollangan odamlar qilgan deb o'ylaysizmi? — dedi u professorning taqir boshida paydo bo'lgan ter tomchilariga qarab.

— Odamlar emas, bunday ish inson bolasining qo'lidan kelmaydi. — Professor kuldan bir chimdim olib kaftiga qo'ydi, — uy ichidagi shuncha narsani, devor — shiftlarning bir qismini hech bir sharpa chiqarmay, is-pis tarqatmay ikki hovuch kulga aylantirib qo'yish — hali shu paytgacha bizda mutlaqo ko'rilmagan hodisa. Qarang ular hatto eshikka teginmaganlar ham, ammo kuch ish-latilgandek bir tekisda yoriq ochib qo'ygan, — professor kaftidagi kulni to'kib yuborib o'rnidan turdi, — laboratoriyyadagilar kulni tekshirib, xulosasini keltirib bersin. Ikkovimiz qo'shni ikkita xonaga qarab ko'raylik. Xudo biladi, yana qanday ishlarni ko'ramiz ekan. Burnimizning tagida yuz bergen hodisani sezmagan bizga endi bu yerda bir soniya ham turishning hojati ham qolmadı. Odamlaringizga aytинг, biz uzil-kesil bir xulosaga kel-guncha hech kimni bu yerga yaqinlashtirmasın.

Professor ishxonasiga kirgandan keyin ham anchaga tinchlana olmadı. Uning taqir boshi va peshanasidagi quyuqlashib qolgan ter tomchilari ertalab-ki quyosh yog'dusida yarqirardi. U oyoq-qo'llarining titrashini bosish uchun yupun kelib o'tirdi. Lekin yana badaniga nimadir sanchilgandek boshidagi terni sidirib tashlab o'rnidan turib ketdi. Yosh bo'lishiga qaramay ko'p ishlarni boshidan kechirgan, o'z kasbiga nisbatan o'zini munosib holda chaqqon hushyor tutishni biladigan Nuril shongviy uning tinchlanishini kutib unsiz tek o'tirdi.

— Men sizga bunday tovushsiz portlash, ya'ni vayron qilish odam bolasining qo'lidan kelmaydi, dedim. Shundaymi? — dedi professor shongviyning oldida to'xtab. Shongviy shunday degandek qilib boshini qimir-latdi, — biz bunday zarbaga ikkinchi marta duch kelmoq-damiz. Men o'z farazimni aytishdan avval, sizga bir huj-jat beraman. Siz yangi kelganingiz uchun, bu yerdagi ish-

lardan to'liq xabardor bo'lib ketishga hali ulgurolmadigiz. Material sizni biz birinchi marotaba yo'liqqan voqeanning jarayoni bilan ta'minlaydi, — professor ish stolining tortmasini titrayotgan qo'llari bilan tortib ochdi, — mang o'qib chiqing, ko'p vaqtingizni olmaydi.

Nuril shongviy 12 bet keladigan bu hujjatni tezda ko'rib bo'ldi. Lekin uning chehrasi to'satdan kuchli raqibga duch kelib qolgandek bir zumda o'zgarib ketdi.

— Mana endi siz bilan mening nimadan gumon qilganligim ustida bermalol gaplashishimiz mumkin bo'la-di, — dedi o'zini biroz bosib olgan professor, — birinchi voqeanning sodir bo'lganiga bir oycha blib qoldi. O'sha vaqtida tadqiqot o'mimiz muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan qo'lingizdag'i hujjatda izohlab o'tilgan «Shafaq — 301»-ning loyihasi o'g'irlanib, shahar sirtidagi «Ilonli» deb ataladigan tashlandiq qo'riqqa yashirib qo'yilgan. Loyiha boshqalar tomonidan olib ketilishidan oldin, tasodifan qo'limizga qaytib keldi, biroq shuni ham e'tirof qilmay bo'lmaydi-ki, loyiha o'g'irlanib yana o'z qo'limizga qaytib kelguncha, biz bu o'g'irlanish holatini sezmadik. Bexatar javonga qo'l tekkan iz ham ko'rinnadi. Bu ish biz uchun yechib bo'lmaydigan jumboq bo'lib qoldi. Bugun ikkinchi marta shunga o'xshab ketadigan ahvolga yana duch keldik.

Nuril shongviyning qoshlari kerildi. U nimanidir eslashga uringandek barmoqlari bilan peshanasini silab, o'ylanib turib qoldi. Biroz jimlikdan so'ng boshini ko'tarib so'radi:

— Hurmatli professor, mana bu hujjat ham, sizning ayтиб берганларингиз бир исхни менинг юдимга туширмоқда. Мен яқинда болалар журналида босилган бир fantastik hikoyani o'qib qoldim, hikoyaning nomi «Sirli signal». Unda, ismi yodimda qolmabdi, bir bolaning eski bir radioni ta'mir qilayotib, kutilmaganda boshqa bir to'lqin-ni qabul qilib, shubhali gaplarni eshitganligi, shu shubha bo'yicha «Ilonli» degan yerga borib, tadqiqot mavzuyi bizniki bilan o'xshashib ketadigan nihoyatda maxfiy bir hujjatni topib olganligi, so'ngra boyagi «Ilonli»ning osmondan tushgan g'ayri odamlar tomonidan portlatib yuborilganligi aytilgan. Buni nima deb tushunmoq kerak? Siz ham hozir «Ilonli» degan joy nomini aytgandek bo'ldingiz. Hujjatda ham...

Professor yumshoqlik bilan «shoshilmang» degandek, qo'lini ko'tardi:

— Bu hikoyani fantaziya deb ham bo'lmaydi. Unda yozilgan voqealar badiiy to'qimalar bilan ancha-muncha o'zgartirilgan esa-da, mohiyatda shu safargi sirli voqeа aynan bayon qilingan. Tasodifan hujjatni qo'lga tushirgan bola mening o'g'lim bo'ladi.

— O'g'lim dedingizmi?! — hayrat va hayronligini yashirolmay Nuril shongviy beixtiyor o'rnidan turib ketdi.

— Shunday, mening o'g'lim, — professor shongviyning hayron qolishidan o'ng'aysizlanib izoh berdi, — 52 yoshda uylanman, o'g'lim hozir 14 yoshga qarab ketdi...

Nuril shongviy kulimsiradi.

— Mening o'rnimdan turib ketganimni boshqacha tushinib qolibsiz, unday emas hurmatli professor. Hozir olimlarimizning ko'pchiligi kechikib to'y qilishmoqda, uylanmay o'tib ketayotganlari ham oz emas, meningcha, buni tushunsa bo'ladi. O'g'lingizning bu ishga aralashib qolganligi meni kutilmaganda juda hayratlantirdi.

— Bu ham shunday bir tasodifdir. Ammo bu tasodif bizni g'oyat zo'r yo'qotishdan saqlab qoldi.

— Hikoyaning muallifi sizlarga tanishmi?

— U o'g'limning muallimi, ismi Usmon.

— Demak, o'g'lingiz bu voqeani Usmon afandiga aytib bergen bo'lsa kerak, deb o'layman.

— Maxfiy idora shu kuni tong sahardayoq «llonli»ga borib, yuz bergen voqeadan iz qoldirmadi. Maxfiylik qattiq saqlandi. Keyin o'g'lim bolalik qilib bu ishni muallimga aytib qo'yan. Biz buni hikoya e'lon qilingandan keyingina bildik.

— Usmon afandi bilan gaplashib ko'rdinglarmi?

— Hojati yo'q edi. Gaplashsak gap ko'payib, maxfiylikning oshkora bo'lib qolishiga sabab bo'lib qolgan bo'lardi. Muxbirlarni o'zingiz bilasiz, ularning «hid olish» sezgisi balanddir. Biz sukut qildik. Fantaziya bilan bu real voqeа odamlarda faqat fantastik ta'sirgina qoldirgan xolos. Bu haqda hozirgacha boshqacha o'y-fikr payqalgани yo'q.

— Ammo bugun...

— Kechirasiz shongviy janoblari, gapingizni bo'lib yubordim. Bunday sirli harakat, unsiz portlatish, — professor deraza orqali osmonga ishora qildi, — faqat shu-

larning qo'lidan keladi. Menimcha, bugun sodir bo'lgan voqealilida yuz bergan voqeaning davomi, har ikkala voqeaning ildizi bir. Lekin ular yana yengildi. 3-nomerli uyga qo'yilgan «Shafaq-301»ning asl nusxasi emas. O'zgartirib ko'chirilgan nusxasi edi. Aslida loyiha dastlabki voqeadan keyingina ko'chirib ketilgan. Hozirgisi «bug'do»ning yer osti tajribaxonasida «Shafaq-301» yasalib, sinovga shay qilib qo'yilgan. Biz uchar likopchalarining' kelishini kutmoqdamiz.

Nuril shongviy o'ylanib qoldi. Professorning keyingi gaplari uni ancha xotirjam qilgan bo'lsa-da, agar oldi olinmasa bu xotirjamlit uzoqqa cho'zilmasligi unga ayon bo'lib qolgandi. Loyihani o'g'irlashga ikki marta uringan bu kelgindilar uchinchi, to'rtinchi marta ham harakat qilishi mumkin edi. Shu narsa ravshanki, ular ham xato qilarkan, bu ularning ojizlik tomonlari ham borligini ko'rsatib turardi. Nuril shongviy zo'r berib o'ylar, o'yalarining oxiriga yetolmasdi. Unga faqat birgina narsa aniqlik kiritishi mumkin edi. Ya'ni, u ham bo'lsa, bundan keyin, yo'q, hozirdan boshlaboq hushyor turish, har bir qadamni puxta o'ylab bosish.

3

Hashamatli «Semurg» mehmonxonasi. Keng, yumaloq qurilgan raqs maydonining o'rtasi, atrofi qushlarning suvgaga qo'nish oldidagi tasviriy haykallari bilan to'silgan sun'iy ko'l bo'lib, uncha baland bo'limgan favvoralardan nafis shoyidek yoyilib otilib turgan suv shovqini ichida sust yonayotgan rangdor fonuslarning shulasida g'uj bo'lib ochilib ketgan nilufarlarni eslatib, kishiga huzur bag'ishlardi.

Dunyo yaralgandan buyon kishilarning nozik histuyg'ularini uyg'otib, cheksiz lazzatdan bahramand etib kelgan musiqaning yoqimli ohangi oxirlashi bilan Usmon afandi Zamiraning bo'liq, oppoq bilagidan yengilgina tutib, o'zlarini ovqatlanayotgan xos uyga qarab yurdi.

— Mumtoz musiqalarni juda yoqtiraman, — dedi Usmon afandi qizga boshini biroz egib, — bunday mashhur kuylarning yaratilishi o'sha davrdagi odamlarning buzilmagan sof, tabiiy muhitda yashaganligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

— Menimcha ham shunday — qiz uning fikriga qo'shildi, — muhit tasavvur, sezgi musiqa ijodiyotida



zarur bo'lgan muhim omildir. Mumtoz musiqalarning kishi qalbini larzaga keltiradigan sehrli kuchga ega bo'lishi ham shunga bog'liq. Afsuski, hozir muhitning bug'lanishi bizning har qanday tadbirlarni qo'llashimizga qaramay me'yordan tez bo'lmoqda. Agar jamiyat taraqqiyoti mana shu tarzda davom etadigan bo'lsa, bir asrga yetmayoq, biz tabiiy muhitni ko'rgazmaxonalardagina ko'radiganga o'xshaymiz, chamasi. Buning yana bir oqibati insoniyat halokatini ham tezlashtirib yuboramizmi, deb o'ylab qolasan kishi.

— Qo'ying, ko'ngil xush bo'lib turganda dilni g'ash qiladigan gaplarni qilmaylik, — dedi Usmon afandi qizni xos hujraga boshlab kirayotib, — mening bugun kayfiyatim yaxshi, nihoyatda xursandman. Sizni jaz musiqali raqsxonaga taklif qilmasligimga sabab, u yerda kishining miyasi gangib qoladi. Bor ovozi bilan baqiradigan qo'shiqchilar, kechada ichib mast bo'lib qolgan bekorchilar yopishib kelaverib holi-joningizga qo'ymaydi. Bu yer juda tinch, ayniqsa yangidan tanishganlar uchun.

Zamira gapirish uchun og'iz juftlagan ham ediki, naqshlangan devordagi atirgul dastasidek karnaydan xizmatchining ovozi eshitildi:

— Xonim, afandim, xizmatinglarga tayyorman, biror narsa lozimmi?

Usmon afandi Zamiraga savol nazari bilan qaradi. Qiz stoldagi yemakliklarni imo qilib, hech narsaning lozimligi yo'qligini bildirib, bosh chayqadi.

— Rahmat, — dedi Usmon afandi, — lozim bo'lганда о'зимиз аytamiz.

— Xo'p bo'ladi, afandi.

Usmon afandi Zamiraning stol ustiga imo qilgandek sho'x, o'ynoqi ko'zlaridan, bosh chayqaganda ochiq, oppoq bo'yinlariga yoyilib tushgan to'lqinli qo'ng'ir sochlardan ko'zini uzolmay qoldi. U uch kundan beri mana shu sohibjamol qiz bilan kechki ovqatda birga edi. Kiyinishiga alohida diqqat qiladigan bu muxbir qizga har qanday rang va har qanday urfdagi kiyim xo'pam yarashardi. Usmon afandi qiz bilan hayajon ilkida xursandlikda ko'rishganda, oldida yangigina ochilgan bir dona qizil gul turgandek bo'lardi. Qizdan anqib turgan anbar islaridan boshi aylanib, ko'zlar suzilardi. Zamira uni go'zalligi bilangina emas, gap-so'zlari bilan ham o'ziga allaqachon rom aylagandi.

— Nega buncha tikilib qaraysiz? — dedi Zamira o'ziga yarashgan erkilik bilan.

— Sizni menga yo'liqtirgan qismat shunday qarashni buyurayotgan bo'lsa menda ne gunoh, — dedi Usmon afandi ham kulimsirab.

— Agar mana shunday, bir-birimizga qarashib o'tiradigan bo'lsak, unda biz qilishimiz mumkin bo'lgan ishlар qolib ketmasmikan?

— Mayli, keyin yetkazib olarmiz.

— Yo'q, men buni xohlamayman, men tufayli ishlaringiz ora yo'lida qolishini istamayman.

Zamira xafa bo'lganligini bildirish uchun, yasama jiddiylik bilan chetga qarab oldi. Qizning bu qilig'i ham o'ziga shunchalar yarashardi... «Unga o'ylash, hayol surish ham yarashsa kerak, deyman» ko'nglidan o'tkazdi Usmon afandi.

— Sizni xafa qilish niyatim yo'q. Mayli, imkoniyatning boricha sizga tikilmaslikka tirishaman, — dedi u qizdan bir nafasga ko'zini uzib. So'ngra salqin ichimlik quyib qizga uzatdi.

Zamiraning yuzidagi yasama jiddiylik o'rnnini tabassum egalladi:

— Men sizning boshlang'ich mакtab o'quvchilariga elektron-hisoblash mashinasining ishlatalishi zararligi haqidagi qarashlaringizni bir boshdan yozib chiqdim.

— Shunday deng, juda tezku-a!

— Men har qanday ishni o'z vaqtida qilishni yaxshi ko'raman.

— Juda soz, — Usmon afandi mammunlik bilan qo'llarini uqaladi, — men sizga nima deb rahmat aytishimni ham bilmayman. Qani edi, mening bu ko'z qarashlarim «Qiziqarli xabarlar»da bosilib chiqsa, unda albatta bunday hol jamoatchilikning orasida katta shovshuvga ham sabab bo'lardi, deb qat'iy ayta olaman.

— Bunga shubha yo'q. Sizning o'y-fikrlaringiz dastlab menga ham kulguli tuyulgandi. Keyin meni qoyil qoldirdingiz. Maqolamni ilhom bilan yozdim. Odamlar ham avvaliga g'alatiroq his qilishi mumkin, ammo ko'p o'tmay uning qadriga yetmay qolmaydi.

— Maqolaning mavzusi qanday qo'yilgan, matnni bir ko'rsam bo'ladi?

— Albatta ko'rib chiqasiz, shundan keyin mavzu ustida birgalikda o'yaymiz.

Zamira matnni olishga shoshilmadi. Uning o'ychan chehrasida birdaniga qandaydir bir gapni aytish-aytmaslik ustida ikkilangandek bir holat paydo bo'ldi. Qizdag'i o'zgarishni sezgan Usmon afandi shoshilib so'radi.

— Sizga nima bo'ldi, Zamira?

— Hech narsa...

— Hech narsa? — Usmon afandi norozi bo'lgan holda uning so'zini takrorladi. — Sizdag'i ma'yuslik meni qattiq bezovta qilyapti. Nahotki, haligacha menga ishonmasangiz?

— Ishonmasangiz deysizmi? — Zamira hilol qoshlarini uchirib, unga lip etib qarab qo'ydi, — men-ku sizga ishonaman-a, ishonganim uchun ham o'zim xohlab huzuringizga kelganman. Lekin, sizni gumonsiraysizmi, deb qo'rqaman.

— Menden shunday shubhali narsani sezdingizmi?

— Hozircha yo'q. Biroq... biroq buni hozirgina bilmoxdaman.

— Tushunmadingiz, Zamira. Ammo, qanday bo'lmasin sizni ishontirishga tayyorman, — Usmon afandi bugun inon-ixtiyorini qizga topshirgan bir tarzda termuldi.

— Siz «Sirli signal»ni fantastika deb e'lon qildingiz, shundaymi?

— Shunday.

— Agar men uni fantastika emas, taxminan bir oy ilgari yuz bergen voqeа desam, rad qilmassiz?

Usmon afandining og'zi ochilib qoldi. Uning chehrasidagi o'zgarishdan bir xil o'ychanlik, andishani payqash mumkin edi. Buni sezib qolgan qiz istehzo bilan kuldii:

— Ishonch haqidagi gapni men emas, siz qo'zg'adningiz. Men faqat shuni isbotlamoqchiman.

Dami ichiga tushib ketgan Usmon afandi pichirlaganday so'radi:

— Uni haqiqiy bo'lgan voqeа, deyishga qanday asosingiz bor?

Zamira kutilmaganda qattiq kulib yubordi. Kulgisining tebranishidan nafis ko'ylagining ostidagi ko'ksi to'lqinlanib ketdi. Shirin hissiyotdan Usmon afandining ko'zları qisildi, boshi aylangandek bo'ldi. Bu ajoyib kelishgan qomat uch kundan buyon uni ham aqldan ozdirardi, ham hushiga keltirardi.

— Ishonchingizga erishishim uchun isbot talab qilsangiz men bunga ham rozi, — Zamira kulgusini to'xtatib o'midan turdi, — unday bo'lsa eshititing, birinchidan, menga eski shahar atrofidagi qishloq-kentlarning nomi kerak bo'lib qoldi. Men elektron-hisoblash mashinasi ko'rsatib berayotgan ismlar ichidan to'satdan «Ilonli» degan bir qo'riqning nomini ko'rib qoldim. Dastlab e'tibor bermadim, keyin nimagadir bu nom menga tanishdek tuyuldi. Oxiri esimga tushdi. Siz yozgan hikoyada bayon qilingan voqeя ana shu qo'riqda yuz bergandi. Bu yerdagи xatolik shuki, hikoyangizda «Ilonli» bilan shahar oralig'i 35 kilometr deyilgan, mening ko'rganimda esa, bu oraliq 72 kilometr edi. Shahardan 35 kilometr olisdagи joyda hozir tashlandiq qo'riq emas, hatto bir qarich ham bo'sh yer yo'q. Siz bu nuqtaga diqqat qilmagan bo'lsangiz kerak. Ikkinchidan, men muxbirman, meni hamma narsa qiziqtiradi. Men hikoyangizdagи «Ilonli» bilan hozir biz bosib turgan zamindagi «Ilonli» tasodifiy o'xshab qolgan deb qaradim. Lekin, qanday qilmay bu o'xhashlikni xayolimdan nari qilolmadim. Oxiri «Ilonli»ga bordim. Eski hisob bo'yicha besh mu² keladigan bu yerni ikki soat qayta-qayta aylanib tekshirdim. Qo'riq tekislanib yuborilgandi, eski uylarni buzib, tekislash nimaga kerak bo'lib qoldiykin? Qandaydir bir izni darhol yo'q qilib yuborishni mutlaqo zarurati bo'lmasa, shuningdek bu yer bilan hech kimning ishi ham yo'q edi. Men yaqin atrofdagi daraxtlarning shu tarafga qaragan shox-shabbalarning qurib qolganligini payqadim. Men yerni tekshirib ancha vaqt ovora bo'ldim. Kutilmaganda katta bir kesakning ostidan bir siqim kul topib oldim. Esingizda bordir, siz hikoyangizda voqeя yuz bergen vaqtini sovuq kunlar edi deb yozgandingiz. Mening borgan vaqtim esa sovuq kunlarning oxiriga to'g'ri keladi, bunday paytlarda yomg'ir ham uncha ko'p yog'maydi. Men topib olgan kul shuning uchun saqlanib qolgan bo'lsa kerak. Gapimni muxtasar qilib shuni aytmoqchimanki, kulni laboratoriya tekshirdim. Men: «Kul — o'simlik va jonivorlar (ayniqsa ilonlar)ning kuyishidan hosil bo'lgan ekan. Kuyishni portlash keltirib chiqargan. Ammo, portlagichning tarkibini aniqlab bo'lindi» degan javobni eshitdim.

² Besh mu — gektarning 1/16 teng.



Zamira gapini tugatib, qo'l sumkasidan kaftday bir parcha qog'ozni olib unga uzatdi. Usmon afandi qog'ozga tezda ko'z yogurtirib chiqdi. Bu qog'oz laboratoriya tekshirishining xulosasi bo'lib, Zamiraning to'g'ri aytganligini isbotlab turardi.

Usmon afandi oldida turgan qizni bиринчи мarta ko'rib turgandek haligacha ko'z uzolmay qarardi. U qizning sezgirligiga, kasbiga bo'lган muhabbatiga, duch kelgan masalalar ustida nozik fikr yurgiza olishidan, yuksak irodasidan zavqlanardi.

— Sizga bu voqeani bilish nima uchun kerak bo'lib qoldi? — dedi u qiyofasini o'zgartirmay.

— Nima uchun kerak bo'lib qoldi?! — Zamira uning so'zini takrorlaganicha, shaharning kechki manzarasi ravshan ko'rinish turgan keng deraza oldiga kelib to'xtadi va tashqariga nigohini tashlagancha so'zida davom etdi,— insonlarning tashqi planeta odamlariga bo'lган diqqati o'tgan asrdan boshlab qo'zg'aldi. Bu haqda Bermund orollariga aloqador sirli voqealarni eslatib qo'yishning o'zi kifoya qilsa kerak, uchar likopchalar o'zi xohlagan paytda yer yuzining osmon bo'shlig'iga yorib kirib, bizning har bir harakatimizni tekshirib, yana hech qanday qarshilikka uchramay qaytib ketmoqda. Aksincha u paydo bo'lganda shu tuman yoki shu shaharning radio-televiedeniya, aloqa, pochta-telegraf muassasalari falaj holga tushib, juda katta ziyon-zahmatga uchramoqda. Bunday ojizlikdan fuqarolar qattiq vahimaga tushib qiyinalishmoqda, bu ahvol hozirgacha davom etib kelmoqda. Ajab, bizning olimlarimiz uchar likopchalarning harakatini to'sa oladigan kashfiyotlarni yaratsin-u uni ochiq e'lon qilib, xalqni vahimadan xalos qilish o'miga, sir saqlab maxsiy tutib yursin. Bir narsa qanchalik sir saqlansa, uning kushandasи shunchalik ko'p bo'ladi. «Ilonli»dagi voqeа buni bizga ochiq-oydin isbotlab bera-di...

Zamira birdaniga orqasiga burildi. Uning shahlo ko'zlari chaqnab ketgandi. Bu chaqnagan ko'zlardan boyagina u aytgan odamlar taqdiriga aloqador alomatlar emas, ishq-muhabbatning uchqunlari balqib turardi. U asta yurib Usmon afandiga yaqinlashdi. Usmon afandi bamisolı lovullagan bir parcha o't unga tomon kelayotgandek butun badanining halimdek erib ketayotganligini his qildi. Qiz uning oldida to'xtab, qo'llarini uning keng

yelkasiga tashladi. Aqalli qizning qo'llarining uchini ham tutishga jura't qilolmayotgan Usmon afandining titroq bosgan badaniga qizning yopib turgan badani yopishdi.

Sizning menga ishonishingiz, mendan sir yashir-masligingiz kerak, sevgilim, — dedi qiz ko'zlarini yanada xumorlashtirib.

Usmon afandi ajoyib bir iliq his-tuyg'udan azbaroyi sehrlangandek, o'zini sarhushday sezdi. Unda endi qizning har qanday talablarini bajonidil qondirishdan o'zga istak qolmagandi.

4

Nuril shongviy tadqiqot o'rnini muhofaza qilish vazifasiga tayinlanganligi haqidagi buyruqni olganda, boshqalarga indamagan bo'lsa-da, bu to'satdan bo'lgan o'zgarishdan ranjidi. «U yerda nima ham qila olaman, — deb o'ylagandi. U yangi vazifaga rasmiy o'tayotgan vaqt-da, ertadan kechgacha qog'oz-qalamdan bosh ko'tarolmaydigan odamlarni muhofaza qiladigan nima narsa bor ekan. Kunim endi kitob-jurnal titkilash bilan o'tib ketadi-mi?» U o'zicha o'ylanib, bunday holni faqat izzat-nafsi ni yerga urish, g'ururiga tegish uchun qasddan qilingan ish degan xulosaga kelgandi. Chunki, u yerda ham unga hasad qiladigan, uning o'miga ko'z tikib turgan odamlarni yo'q, deb bo'lmasdi-da.

Maxfiy idoralarning yuqori lavozimdagagi amaldorlari qabul qilishidan keyinroq, o'zining yangi vazifaga o'tishi haqidagi qarashini o'zgartirib yubordi. Boshliq unga «Ilonli»da yuz bergen voqeani gapirib berib, uning xafalashadigan odamlari dunyo odamlarigina emas, balki, tashqi sayyora odamlari ham bo'lib qolishi ehtimoli borligini alohida ta'kidladi. U shu bilan uning xizmatdagagi qobiliyati bilan ham hisoblashganligini bildirgan edi. Bunday vazifaga esa, albatta, alohida tajribaga ega ko'zga ko'rigan xodimlargagini ishonishlarini shongviy anglab yetdi.

U tadqiqot ishiga kelgandan keyin, ahvolni to'liq o'rganib, zarur tadbirlarni qo'lladi. Ammo, u bunday zeriktirarli osuda muhitga sira ko'nikolmadi. Bu ishga qovusholmay, o'zini bu tinch xizmatda bo'shashib bamisolai kundan kunga erib ketayotganday his qilardi. U avvalgi ishdagi jiddiy, shoshilinch serharakatda o'tadigan xizmatlarni sog'inib eslab, yangi vazifasidan bo'shamoq-

chi bo'lib yurgan kunlarda voqeа yuz berdi. Voqeа yuz berganda ham hech qanday iz qoldirmay, hatto qanday vaqtda sodir bo'lganligini aniqlab bo'lmaydigan bir holatda yuz berdi. Ilgari yuz bergen har qanday ishni ortiqcha mashaqqatsiz bemalol topa olardi. Bu voqeada esa chigalning uchi u yoqda tursin, o'y lash, fikr yurgazishga ham imkon yo'q edi. Nuril shongviy xonaning o'rtasiga to'plab qo'yilgan kulning yerdagilarni kalaka qilish uchun atay qilinganligini his qilib g'azabdan titrab ketdi. Bu voqeа ustida professor aytgandek, darhaqiqat, tashqi sayyora odamlarining qilgan ishi, degan dastlabki xulosaga kelishdan boshqa iloj qolmagandi. Nuril shongviyning bo'shab qolgan asablari yana kuchaydi, sergaklandi. Lekin, ishni qayerdan boshlashni bilmay boshi qotdi.

Bugun ertalab o'midan turibоq unda «Ilonli»ga borib ko'rish istagi tug'ildi. Voqeадан bir oy o'tgandan keyin u yerga borishning hech qanday qimmati qolmagan bo'lsada, shongviy borish qaroridan qaytmadi. U «Ilonli»ga borishini boshliqlarga aytmadи, mana shu bir necha kundan buyon o'zidan boshqa hech kimga ishonmaydigan bo'lib qolgandi.

Sur'at va nishonni elektron hisoblash mashinasi nazorat qiladigan baliqsimon yengil mashina yuqori sur'atli yo'lda g'uwillab borardi. Qo'llarini ko'ksiga qovushtirib, yumshоq o'rinda o'tirgan shongviy yaqinda yuz bergen voqeа ustida o'ylamoqchi, fikr yurgizmoqchi bo'lardi. Biroq bosh-keti yo'q chigal xayollaridan bir fikrga kelolmay, ichi siqilardi. Mashina ichi isib ketgandi, shongviy shamol bergichni ochib, bo'yinbog'ini bo'shatib qo'ydi. Uni mashinaning yo'l belgilariга amal qilib sur'atni biroz sekinlashtirishni, ortidan kelayotgan mashinalarga yo'l berishi, burilishlardan aylanib o'tishi qiziqtirib qoldi. «Hozir mashinalarga rul qurilmasi ishlatilmaydi, — deb o'yladi u yonlab ketayotgan qo'ng'irrangli mashinadagi sariq sochli qizga qarab qo'yib, — o'ziyam ketvorgan chirroyli qiz ekanmi, mayli qaytar chog'imda uchrab qolsa tanishib olarman. Qo'ng'ir mashina o'tib ketdi. Shongviy ko'z qirida qarab qo'ygan qizga kulimsirab qo'l ishorasini qilishga ulgurdi. Ilgari odamlari ruli bor qo'pol mashinalarni zerikmay, charchamay qanday ham haydab yurishgan ekan-a. Avtomobil kashf qilinib, 1886-yilda ilk marta avtomobil odam bosib o'ldirgan voqeадан keyingi

80 yil ichida, dunyoda 20 milliondan ortiq odam yo'l falokati hodisasida o'lgan ekan. Balki bu son keyin yana ham ko'paygandir. Qanday achinarli hol! Ammo bu odamlarning g'ayrat-shijoatiga qoyil qolmay bo'lmaydi. Agar ular mashaqqatdan qochib, texnika yaratmaganlari-da, bizning bugungi kunimiz...» mashinaning to'xtashi uning xayolini buzdi. Shongviy atrofiga qarab, «Ilonli»ga yetib kelganini bildi.

Nuril shongviyning oldida siyrak daraxtlar orasidagi bir parcha taqir yer ko'zga ravshan ko'rinish turardi. Uning eshitgan va materialdan o'qiganiga qaraganda, bu yerda eski, uch xonalik tashlandiq uy bo'lgan. Shongviy taqir yerni bosib o'tib, o'ziga balanddek tuyulgan yerga chiqib to'xtadi. Shahar shovqin-suronidan xoli bo'lgan bu yer tinch edi. Oralab eshitilib qoladigan qushlarning sayrashi, hasharotlarning chirillashlari bu tinch olamni jonlantirib kishiga huzur ato etardi. Tabiatdan huzurlangan shongviyning xuddi qulf solayotgandek yopilib qol-gan miyasi «taq» etib ochilib ketgandek bo'ldi. U zum o'tmay o'zini yengil, tetik his qildi va bundan suyunib ketdi. «Men bu yerga tabiatdan bahra olib, charchagan asablarimdan xoli bo'lish uchun kelganga o'xshayman chamasi, bu ham yaxshi bo'ldi» dedi u ovozini chiqarib. Endi u o'ziga tinchlik bermayotgan murakkab ishlari haqida o'ylay olardi, fikr yurgiza olardi. Uning xayoliga ilk bora kelgan narsa bu yer haqiqatan tashqi kelgindilar tomonidan portlatib yuborilganmikin degan o'y bo'ldi. Shongviyning bunday gumonga borishi, albatta, asossiz emas. Portlashni bu voqeaga tasodifiy yo'liqib qolgan professoring o'g'li ko'rgan bo'lib, boshqa dalil-isbot yo'q edi. U professoring o'g'li bilan gaplashish lozimligini ko'ngliga tugib qo'ydi.

Shongviy taqir yerga sinchiklab qaradi. Qo'riqning o'mi bilinar-bilinmas darajada tekislab yuborilgan bo'lsada, u yer-bu yerda uch-to'rt enli ko'tarilib qolgan qirralar ko'zga tashlanardi. «Bu yer balki mangu giyoh o'smay taqirligicha qolib ketar, — dedi u pichirlab, — professor «Ilonlida»gi portlash ham 3-nomerli uyning kulga aylanib ketganiga o'xhash tebranishsiz, unsiz bo'lgan. Bo'lmasa biz uni sezgan bo'lardik, degan edi, shunga qaraganda bu narsa o'shalarning ishimikan-a?»

Shongviy uzil-kesil xulosaga kelmay turib, unda ikkinchi bir savol paydo bo'ldi: shuncha qudratli bo'lgan

bu odamlar nima uchun bevosita tadqiqot ishiga kirishmasdan «Ilonli»ga keldiykin? U o'zining savoliga o'zi javob topdi: Ular biz loyihalagan «Shafaq»ning uchar likopchaga ta'sir ko'rsatishidan ehtiyyot bo'lganlar. Afsuski, u paytda «Shafaq» hali yasalib bo'limgan edi, buni ular bilmagan. Unday bo'lsa loyihani kim o'g'irlab, «Ilonli»ga keltirib ko'mgan ekan?..

— Afandim, sayr qilib yurganga o'xshaysizmi?

Xayolga berilib ketgan shongviy cho'chib ketdi. Uning yonida soch-soqollari kumushdek oqargan, ko'rinishidan hali tetik, o'rtalbo'yli bir qariya turardi.

— Shunday, hurmatli oqsoqol, sayr qilib yuribman,— dedi shongviy biroz egilib.

— Ketayotsam yolg'iz turibsiz, kishi qariganda odam xumori bo'lib qolarkan. Ko'rishib o'tib ketay, dedim.

— Yaxshi, ko'ngil so'raganining uchun rahmat.

Nuril shongviy yuz qadamcha narida turgan ot-aravani ko'rdi. Har xil markadagi yengil mashinalarga mahliyo bo'lib, e'tibordan qolgan ot-arava qaytadan kishilarning nazariga tushib, shahar chetida e'tiborli ulovga aylanib qolgan edi. Bu aravalalar XVIII asrdagi ressorli aravachalarga taqlid qilib yasalgan bo'lib, bahosi yangi markadagi mashinaning bahosidan qolishmasdi.

— Mana shu atrofda turadiganga o'xshaysiz chog'i?

— Ota-bobom dehqon o'tgan ekanlar, dehqonchilik menga ham meros qolgan... O'zim yolg'iz ota-bobolarimning chirog'ini o'chirmay o'tiribman.

— Farzandlaringiz yo'qmi?

— Ikki o'g'il, bir qizim bor. Voyaga yetgach poloponday uchib ketishdi, to'g'rirog'i, uy-o'chog'lik bo'lib, qishloqda turishni xohlamay, shaharga ko'chib ketishdi.

Nuril shongviy qariyaning oftobda kuygan chiroyiga soya tashlagan qayg'uni ko'rib unga achinib ketdi.

— Ko'nglingizni yarimta qilmang, otaxon, — dedi u hamdardlik bildirib, — ilgari odamlar qishloqdan shaharga oqqan bo'lsa, hozir endi shahardan qishloqqa intiladijan bo'lib qoldi. Bu ham xuddi kichik mashinalardan zerikib, ot-aravalarga ishtiyoqlari oshganga o'xshash bir gap. Hali ko'rasiz, farzandlaringiz yoningizga qaytib keli-shadi.

— Dilimdagini tushunganingiz uchun sizga rahmat, — qariya unga minnatdorchilik bilan qarab qo'ydi, —

bolalarim, nabiralarim tez-tez yo'qlab turadigan bo'lib qoldi. Ilgari unday emas edi.

— Ana ko'rdingizmi, bu yolg'izchilikka barham beradigan kunlar boshlandi, endi xotirjam yashayvering, — shongviy qariyaning ko'nglini ko'taradigan so'zlar aytib, qiziqsingan bir holda so'radi, — bu atrofda sizdek katta yoshlarga borgan odamlar oz bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

— Bu atrofda yo'q, qo'shni qishloqlarda bor. 86 ga kirdim, bunday aytganda, umrimning yarimi o'tgan asrga, qolganini bu asrda yashayapman.

Qariya o'zining gapidan zavqlanib kului. Shongviy suhbatni kulgili tomonga burishga urindi:

— Sizga o'xhash ko'pni ko'rghan mo'ysafidlar bilan uchrashish, ularning suhbatlarini olish fursati bizdek shaharda yashashga mahkum qilingan odamlarga juda kam uchraydi. Men bugungi sayohatimdan behad mamnumman. Chunki, bu sayohat menga ota-bobolarimiz yashagan makonni, uning har bir qarichi va giyohni qadrlaydigan oqko'ngil odamga yo'liqtirdi.

Qariyaning ko'zları nurlanib, chehrasi ochilib ketdi. Qaddi-basti kelishgan, kiyinishi oddiy, bir qarashdan bank xodimidek ko'rindigan bu kishi qariyada yaxshi taassurot qoldirgan edi.

— Bizning qishloqlarga sizga o'xshab yaxshi baho beradigan kishilar hozir nihoyatda kam, — dedi qariya samimi, — ayniqsa biz keksalar ularning nazarida eskilikni yoqlovchi johillarmiz. Ammo, ular biznnig keksa qalbimizda ota-bobolarimizning ruhi saqlanib kelayotganini, bu ruhning bizga madad berib, ota-bobolarimizdan qolgan tabarruk izlarni o'chirmaslikka da'vat qilishini tushunishmaydi. — Biroz jiddiylashib qolgan otaxon keskin bir harakat bilan qo'lini cho'zib taqir yerni ko'rsatdi, — mana shu yerda qadimdan bir qo'riq bo'lardi. Keyin bu yerning suvi tortilib ketib, qo'riqning egalari ham shu sababdan ko'chib ketdi. Keyin qanday bo'lidi, bundagi hikmatni bir xudoning o'zi biladi. Uylarning o'rni ilonlarga makon bo'lib qoldi.

— Xato qilmasam shahar atrofi xaritasida «Ilonli» deb atalgan qo'riqxona shu bo'lmasin yana.

— Xuddi shuning o'zi, hozir ham bu yerni «Ilonli» deb ataymiz, ammo hozir ilonning urug'iniyam topib bo'lmaydi.

— Men qo'riqning nomiga loyiq biror-bir belgini ham ko'rmadim-ku?

— Tekislab yuborishdi. Bir kechadayoq eski uch uyni ham qo'shib tekislab yuborildi. Nimaga xalal berdiykin bilolmadim. Mana shunday bitta-bitta yo'q qilib, qadimiyl nomdan nishon ham qolmay, ayrilib qolmoqdamiz.

— Bir tashlandiq xarobani tep-tekis qilib yuborishga hojat bormidi? — Shongviy taajjuhlanganligini bildirib qo'llarini yoydi.

Qariyaning yuzi burishib, qandaydir shubhali bir ishdan besaranjom bo'lgandek turgan joyida qimirlab qo'ydi.

— Avval portlatildi, so'ngra tekislandi, — dedi u ovozini pastlatib.

— Portlatildi?!

— Shunday, portlatildi, — qariya birovning eshitib qolishidan qo'rqqandek chor-atrofga nigohini tashlab, ovozini yanada pasaytirdi, — aytsam ishonmaysiz. O'sha kuni men uyimning tomida edim. Nima ish bilan tomga chiqqanim hozir sira esimda yo'q, ammo kun qaytgan chog' edi, shu vaqtida xuddi birov qara, degandek qildi, shunday qarasam, mana shu yerning ustida bir olovli shar tursa bo'ladimi, qotib qoldim. Men, odatda, 30 hissa yaqinlashtirib ko'rsatadigan epchilgina durbinimni yonimda olib yuraman. Darhol durbinni olib qaradim, qaradimu, cho'chib tushdim. Olovli shar yonayotgandek ko'ringandi. Birpasdan keyin uning ichidan odamga o'xshaydigan bir narsa ajralib chiqib, mana shu yerdagi eski uylarning ustiga tushdi. Men avval — qo'shnimni topib bo'lguncha boyagi narsa ko'tarilib chiqib sharning ichiga kirib ketdi. Shar ko'zdan g'oyib bo'lishi bilanoq Ilonlidan qop-qora tutun ko'tarildi. Lekin, shu zahotiyoy xuddi birov simirgandek yo'qolib ketdi. Keyin eshitsam atrosimizdagilardan yana bir nechta odam ham bu tutunni ko'ribdi. Uchrashib qolsak shu voqeа ustida gaplashib qolamiz. Oxiri bu yerda qurilish boshlanmoqchiga o'xshaydi. Ish boshlash oldidan, albatta, ilonlarni yo'qotishmoqchi shekilli degan fikrga keldik. Qizil ilonlarni yo'qotish uchun olovli shar bilan kelish shartmidi? Bu to'g'rida har xil gaplar yuribdi...

— Qanday gaplar?

— Aqlga sig'maydigan gaplar... Olis olamlarning odamlari deydimi-yey, ishqilib shunga o'xhash gaplar...

Nuril shongviy kulimsiradi:

— Ular shuncha yo'l bosib ilon o'ldirgani kelmasov.

— Shuni aytmaysizmi, — qariya tasdiqlab bosh qimirlatdi, — keyin bu yer tekislanib ketibdi, qachon tekislanib ketganligini hech kim bilmaydi. Hozir bu yerdan ilon tugul chumoli ham topolmaysiz. Ilgari ilon degani to'lib-toshib yotardi. Bu yerlarga ilonlarning dastidan odam emas, yirtqichlar ham yaqin kelolmasdi.

Nuril shongviy ko'ngli sezgandek bu yerga kelib to'g'ri qilganligiga ich-ichidan xursand edi. Endi aniq bo'ldiki, yuz bergen voqeani yolg'iz professorning o'g'ligina emas boshqalar ham ko'rghan ekan. Professor yozishicha, uning o'g'li ham «Ilonli» ustida paydo bo'lgan g'alati yumaloq narsani «olovli shar» deb atagan, qariya ham shunday dedi. Shunga qaraganda har ikkalasi (balki boshqalar ham) o'xhash bir narsani ko'rghan. Lekin, o'sha uchar likopcha emas, uchar likopchaning o'zidan kelgan alohi-da bir obyekt bo'lishi mumkin.

Nuril shongviy olis-olislarga, musaffo osmonga, yer zaminning qizdira boshlagan quyoshga qarab, joyidan qo'zg'aldi. Ammo, uning o'yiga kelgan mulohazalardan hali u to'xtamagandi: professorming o'g'li loyiha solingen sumkani olib ketgandan keyin, «olovli shar» dan tushgan odam sumkani topolmay asabiylashgan, so'ngra Ilonli qo'riqni portlatib yuborgan. Agar boshqa bir odam loyi-hani o'g'irlab, ular bilan bog'langandan keyin, loyihami bu yerga olib kelib berganda edi, u holda ular to'g'ridan to'g'ri «Ilonli» qo'riqqa tushmagan bo'lardi. U odamning o'zi kim? Agar shunday bir odam bor deydigan bo'lsak, bu odam tadqiqot o'mini ham va hech kim bormaydigan «Ilonli» qo'riqni ham yaxshi bilgan bo'lib chiqadi-da.

«Ichimizda — tadqiqotchilarning ichida shunday bir odam bor, — dedi shongviy uzil-kesil bir qarorga kelib, — ular loyihami qidirishmoqda. 3-nomerli uydan gumon qilib, loyihami topolmagandan keyin, uni ham portlatib yuborgan. Ular loyihami topmaguncha harakatni to'xtatmaydi. Bu nihoyatda xatarli raqib».

5

Usmon afandi «Semurg» mehmonxonasi dagi uchrashuvdan keyin, bu dunyoga faqat Zamira uchungina kelgandek, Zamirasiz yashashning sariq chaqachalik qimmati yo'qdek sehrli tuyg'u ichida yashardi. Zamira bamisol u sig'inadigan ma'buda edi. Zamiraning

og'zidan chiqqan eng oddiy iltimos ham uning uchun muqaddas edi.

Kecha kechqurun ular yana «Semurg» mehmonxonasi dagi xos uyda vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o'tkazishdi. Qaytadigan vaqtda Zamira unga noz-karashmalar bilan otash bo'salarni hadya qilgandan keyin, professorning o'g'li Malik bilan ko'rishish orzusi borligini izhor qildi. Bu iltimosni bajarishga Usmon afandining ko'zi yetgani uchun bundan mamnun bo'ldi. Usmon afandining roziligidan yanada ochilib ketgan Zamira uning yuz-ko'zlarini silab qo'ydi.

Bugun ertalabki dars tugashi bilanoq, Usmon afandi maxsus televizor kanali orqali Malik bilan alohida ko'rishdi. Malik Usmon afandining taklifiga avvaliga ikkilandi. Malikning «qanday ish edi», deb so'ragan savoliga Usmon afandi «juda qiziq bir ish, uyga kelgangingda bilasan» dedi. Malikda ham qiziqish paydo bo'ldi, kelishga rozi bo'ldi.

Shahardan 150 chaqirim olisdagi «Ko'ksoy» deb atladi gan manzarali sayohat tumanida Zamira bilan bo'ladigan sayohatning gashtini oldindan his qilayotgan Usmon afandi xursandligidan o'zini qo'yishga joy topolmay, uy ichida u yoqdan bu yoqqa yurardi. Zamira unga o'zining ismini Malikka vaqtinchacha aytmasligini, ular Ko'ksoyda tasoddifiy uchrashib qolgandek ko'rsatishsa, bu hol romantik tus olib, ko'ngildagidek tabiiy chiqishligini uqtirgandi.

Usmon afandi soatiga qarar ekan, birdan hushyor tortib, yodiga kelgan bir savoldan turib qoldi: Zamira nima uchun Malik bilan uchrashmoqchi bo'lib qoldi? Undagi o'ychanlik bir-ikki soniyaga cho'zildi. U yana sog'inishdan mast-alast holatiga qaytdi. Boshqa ishlar ustida bosh qotirish uning qalbida gulhan bo'lib yonayotgan muhabbatning oldida mutlaqo qimmati yo'q edi. «Nimalar qilmay baribir uning aytgani bo'yicha ish qilishim kerak» dedi u boshini qashlab. Yengillashib qolgan Usmon afandi o'zini bir nafasga bo'lsa-da, orombaxsh hayollaridan mahrum qilgan boyagi savoldan nafratlangandek yuzini burishtirdi.

Malik keldi. O'n to'rt yoshni qoralagan, bug'doyrang, quyuq qora jingalak sochli, qosh-ko'zi ham sochidek qora bo'lgan bu bola kishida yoqimli taassurot qoldirardi.

— Demak, gap bunday, dedi. — Usmon afandi

Malikning aytgan vaqtida kelganligidan xursand bo'lib, uning ko'rishish uchun uzatgan qo'lini qo'yib yubormay mahkam qisdi, — mening bugun bir sayohat qilgim kelgan edi. Yolg'izlik kishini zeriktiradi, menga hamroh bo'lsang, birga sayohat qilib kelsak nima deysan?

Malikning savolomuz qarab turgan qo'y ko'zlarida hayronlik aks etar edi. U kelguncha Usmon afandining uyiga chaqirishidan qiziqroq bir ishni ko'z oldiga keltirib qo'ygan bo'lsa-da, ammo, sayohatga taklif qilishligini mutlaqo xayoliga keltirmagandi. Kasbiga pishiq, odatda o'zini jiddiy tutib yuradigan bu o'qituvchini Malik yaxshi ko'rardi, ora-chora u bilan suhbatlashib ham qolardi. Ana shunday suhbatlarinng birida Malik ichiga sig'dirolmay kelayotgan Ilonli qo'riq voqeasini gapirib bergandi. O'n kunga qolmasdan bu voqeal bolalar jurnalida e'lon qilindi. Dadasi Malikdan qattiq xafa bo'ldi.

Malik javob berishga qiynalib boshini quyi soldi. Uning yo'q, chiqolmayman, deyishdan andishaga tushib qolgan Usmon afandi birdaniga jim bo'lib qoldi. U qanday bo'lmasin Malikni Ko'ksoya olib borishi kerak edi. Zamiraning topshirig'i bajarilmasa, bugungi sayohat ko'ngilsizlik bilan tugashi, xatto Zamira xafa bo'lib uni tashlab ketishi ham mumkin edi. Bunday hol Usmon afandi uchun bir umr visol onlaridan judo bo'lib qiynalib o'tadigan achchiq yo'qotish bo'lib qolardi. Yolg'onchilikni esa eng tuban ish deb biladigan Usmon afandiga endi yana shu yolg'onchilikdan foydalanishdan o'zga chora qolmagandi.

U o'ziga ma'yuslik, ruhiy tushkunlik tusini berib, ovozini ham shunga yarasha moslashtirib dedi:

— Sen boyagi hikoya uchun xaligacha mendan arazlab yuribsan chog'i. Necha marta uzrimni aytdim. Bugun seni sayohatga taklif qilishimdan maqsad ham sendan yana bir bor uzr so'rash. Aytgandek, u hikoya boshqalar-da shubha tug'durmadi-ku?

Bu gap Malikka ta'sir qildi. Bola boshini ko'tarib Usmon afandining kayfiyatsiz qiyofasiga ko'zi tushdi-da, hijolat bo'lganidan qizarib ketdi.

— Mayli, borsam boray, — dedi u zo'rg'agina, — qayerga boramiz?

Usmon afandining chehrasi yorishib ketdi.

— Ko'ksoya, — endi uning ovozi ham jarangli edi, —

dunyodagi eng mashhur sayohatli joylar ham unga teng kelolmaydigan Ko'ksoya-da.

Zamira unga sayohatga zarur bo'lgan narsalarning hammasini o'zim olaman, bu erkaklar qiladigan ish emas, sizlar kechikmasalaring bo'ldi, degandi. Shuning uchun ularning safarga chiqishlari ham tez ko'chdi.

Ko'ksoy faqat sayohat qilish uchungina yaratilgandek tabiiy manzarasi kishi zavqlangudek go'zal, bahavo tog' bag'riga tutashib ketadigan yer edi. Odatda sayohat qiluv-chilar bu yerga tushdan keyin kelishib, kech kirib qorong'i tushishi bilan qaytiib ketishardi. Ular tushdan ilgari chiqqanligi uchun sayohatchilar siyrak edi.

— Qara, ana ajdahodek to'lq'anib yotgan haybatli toqqa qara, bir-biri bilan bo'y talashib tikka o'sgan yashil archazorlarni ko'r. Toshdan toshga urilib sharqirab oqayotgan zilol tog' suvlariga qara. Tog' gullari-chi, ular inchinun. Oh, qanday go'zal joy, qanday jozibador!

Malik mashinadan tushiboq qo'llarini kerib, tabiatning borliq go'zalligini tarannum qilgundek gapirib kelgan o'qituvchisiga ajablaniib qarab kulib qo'ydi. Uning nazarida o'qituvchisi bugun butkul o'zgacha bir odam bo'lib ko'rinardi.

— Yur Malik, tog' suvi jonga rohat baxsh etadi. Borib yuz-qo'llarmizni yuvaylik, shaharning diqqinamas havosidan bo'shashib ketgan tanamiz ozod qushdek bir yayrasin. So'ng qo'shiq kuylaymiz, chamanzorda chopqillagan yosh boladek yumalaylik, toqqa chiqaylik.

Soyning o'rtasida to'lqinlanib oqayotgan zilol suv, rango-rang ochilib turgan tog' gullari, yashillikka burkan-gan tog' bag'ri Malikni ham o'ziga rom qilmay qolmadni. Suv yalab silliqlashtirib yuborgan toshga oyoq bosib, betko'lini sochiq bilan artayotgan bola o'tmisht tabiiy manzaralari tasvirlangan mashhur moy-bo'yoq tasvirlarini endilikda chinakam hayotda o'z ko'zi bilan ko'rар, atrofга to'ymasdan boqardi. Uning bu yerlarda chopqillab yurgisi, umbaloq oshib o'ynagisi, tog' gullaridan terib, guldastalar yasab, ota-onasiga olib horib, ularni xursand qilgisi kelardi.

— O'-xo'-o', agar men yanglishmagan bo'lsam, Usmon afandining asl qiyofalarini ko'rayapman, chog'i.

Orqa tomonda — yaqin yerdan eshitilgan bu yoqimli ovozdan ikkovi baravar ortlariga qarashdi. Ulardan to'rt-besh qadam narida boshiga nafis ishlangan, oftob urish-

dan saqlaydigan oq qalpoq, egniga sayohat kiyimini kiygan bir qiz turardi. Kiyim va qalpoq unga chunonam yarashib ketgan ediki, u xuddi ertaklardagiday to'satdan namoyon bo'ladigan Ko'hiqof parilarini eslatardi.

— Zamira...

Usmon afandi burilaman, deb muvozanatni saqlayolmay qo'llarini kerib, gandiraklab ketdi. Bunday uchrashuv oldindan belgilangan bo'lsa-da, qizning kutilmagan joyda paydo bo'lishi uni esankiratib qo'ygandi. Zamira tezda kelib qo'lidan tutib qolmaganda, Usmon afandi naqd suvga yiqilib tushgan bo'lardi.

— Rahmat... rahmat sizga Zamira, — tekis yerga chiqib olgan Usmon afandi minnatdorlik yonib turgan ko'zlar bilan qizga tikilib qarashdan o'zini tiyolmay, — siz bu yerda nima qilib yuribsiz, qachon kelgandingiz? — dedi yo'liga Usmon afandi.

— Sizlarga o'xshab sayohat qilib yuribman, — dedi Zamira xushchiroy bilan. So'ngra o'ziga og'zini ochib qarab qolgan Malikka yoqimli nazar tashladi. Usmon afandi Malikni tanishtirdi.

— Mashhur professoring o'g'illari bilan tanishganimdan juda xursandman, — Zamira Malikning oldiga kelib qo'lini uzatdi, — «Qiziqarli xabarlar» gazetasining muxbirini bo'laman, ismim Zamira, Usmon afandi bilan ko'pdan buyon do'stman. Siz bilan ham agar xohlasangiz shunday do'slashib qolishni istayman.

Malik muhib qizning nozik qo'lini tutib ko'rishdi. Bu qo'l shunchalar iliq, yoqimli ediki, uning tomirlaridan oqib o'tayotgan g'alati xis jismi-jonini bir holga solgandek, bamisolri rivoyatlardagi farishta bilan uchrashib qolgandek, his qilardi.

— Rahmat... Men-ku xursandman..., — deya oldi Malik zo'rg'a ovozini chiqarib.

— Juda yaxshi bo'ldi, mana endi biz...

Zamira Usmon afandining gapini bo'lib yubordi:

— Men o'zim yolg'iz sayohat qilib yurgan edim. Sizlar bilan uchrashib qolganim ham yaxshi bo'ldi. Safingizga qo'shilsam, birga sayohat qilsak nima deysizlar?

Taklifga Usmon afandi darhol rozi bo'ldi. Zamiraga anqayib qarab qolgan Malik kulimsirab qo'ydi.

— Biz bu kaftday keladigan yerda vaqtimizni bekorga o'tkazib yubormaylik, — dedi Zamira atrofiga ko'z yugurtirib. Ulardan o'ttiz qadamcha narida yangigina

kelgan uch-to'rt yigit ular tomonga tez-tez qarab qo'yemoqda edi. Suvning narigi betida bir-biridan oraliq tashlab ikkita, ikitidan erkak-ayollar tomosha qilib yurishardi. Bora-bora soyda odamlar soni ko'payib borardi. Zamira ulardan ko'zini uzib, gapida davom etdi, — men bu atrofni besh qo'ldek bilaman. Suvni yoqalab yuqoriga chiqsak yanada ajoyib manzarali joylar bor. Sizlar u yerlarni ko'rganda, ishonamanki, judayam xursand bo'lasiz.

— Manzarali joylarni ko'rib ketaylik qani, qani, yo'l boshlang bo'lmasa, — dedi birdaniga ruhlanib ketgan Malik. Unga bu muxbir qiz nimasi bilandir yoqib qolgandi. Bolaga u bilan birga yurish juda ko'ngilli tuyula boshladi.

Ular uzoq yurishdi, oldilarida uchragan hamda shiddat bilan sharqirab oqayotgan soy suvlaridan bir-birlarining qo'llaridan tutishib, toshli yerlarni bosib o'tishdi, balandroq tepaliklardan qo'l tortishib chiqishdi, chaman-zorda quvlashib o'ynashdi. Zamira qiziq-qiziq gaplar ayтиb ikkovini kuldirardi, hech kim horg'inlik sezmasdi. Malik tog' gullaridan gulasta tuzdi-yu, Zamiraga taqdim qildi. Xursand bo'lib ketgan Zamira uning yanog'idan o'pib qo'ydi.

— Usmon afandidan eshitishimcha, siz «ilonli» qo'riq degan yerda muhim bir hujjat topib olibsiz, shundaymi?

Malikning xayolida kulimsirab qarab turgan go'zal xonimning savoliga darhol javob berishdan boshqa iloj yo'q edi.

— Dadamning akasi «ilonli»ga yaqin bir qo'riq yerda turardi, — dedi u shu kunlarni esga olmoqchi bo'lgandek ko'zlarini qisib, — men ham shu yerda dam olayotgandim. Bir kuni zerikib ketib, ombordan buzilgan eski bir radioni topib oldim-da, tuzatmoqchi bo'ldim. Lekin, har qancha urinsam ham bo'ljadi. Oxiri jahlim chiqib, radioni bir urgandim undan g'ijillagan ovoz chiqdi. Odam ovozi! Men inglizchani yaxshi bilaman. Taxminimcha ovoz bir odamga muhim bir ishni xabar qilayotgandi. Men dadam ishlaydigan tadqiqot olib boradigan joyning maxfiy belgisini eshitib qoldim, shundan keyin sergaklandim.

— «ilonli» ilonlarning uyasiga aylangan yer bo'lsa, ilon chaqib olishidan qo'rqmadingizmi?

— Qo'rqsam undan ham qo'rqinchli voqeа yuz bergen

bo'lardi. Dadam hujjat o'g'irlovchilarni boshqa say-yoralarning odamlari, deydi.

— Dovyurak bola ekansiz, bu odatingiz bilan bizga ham ma'qul kelasiz, — Zamira uni maqtab yelkasidan siqib qo'ydi. — So'ngra bu ishni Usmon afandiga aytib bergen ekansiz-da.

Usmon afandining hikoya yozishini o'ylamagan ekan-man. Dadam hikoyani o'qib mendan qattiq achchiq-landilar.

— Bundan keyin, — Zamira yonida o'tirgan Usmon afandining yonoqlariga yengilgina urib qo'yib kuldii, — mana shunday sir saqlayolmaydigan odamlarga sir aytib yurmang.

Ular yuqoriga o'rslaganlari sari soy torayib borardi. Ikki tomondagi xarsang toshlar osilib turgan tog' oralig'idan sakkiz-o'n metr pastda sharqirab oqayotgan soyning ovozi eshitildi. Zamira yo'lning tuyulishida to'xtadi.

— Hozir men sizlarga sayohatimizdagi eng qiziqarli joyini ko'rsataman, — dedi u ortidan kelayotgan ikkovi-ni to'xtashga ishora qilib, — u sehrgarlik deb ataladi. Sizlar «Ali bobo va qirq qaroqchi» degan ertakni bilasiz. Men ham Ali boboga o'xshab baqirsam ko'z oldinglarda bir g'or paydo bo'ladi, — Zamira toqqa yuzlanib Ali boboga taqlid qilib baland ovozda, — sim-sim, eshiging-ni och, — deb baqirdi.

Ajabo! Osilib turgan ulkan bir xarsang tosh ovozsiz asta ko'tarildi. Bo'sag'ada qop-qorong'u g'or paydo bo'ldi. Usmon afandi bilan Malik nimagadir qo'rquvsarosimaga ham tushmadilar. Ular rostdan ham bir sehrgarlik o'yinini tomosha qilayotgandek Zamiraning yana nimadir qilishini kutib unga qarab turishdi. Zamira:

— Qani, yuringlar, g'orni ko'rib chiqaylik, — dedi.

Ular g'orga kirishi bilanoq, g'orning og'zi yana avvalgiday tovushsiz bekilib qoldi. Bir necha soniya hukm sur-gan qorong'ulik birdaniga kunduzdek yorishib ketdi. Kuchli yorug'likdan ko'zlari qamashgan Usmon afandi bilan Malik ko'zlarini uqalab atrofga qarashdi. G'orning shiftida go'yo tushib ketayotganday bir qancha qo'pol tosh parchalari osilib turardi. Asfaltlangan yerga esa gilam to'shalgan bo'lib, bunday gilamni shahardagi hashamatli mehmonxonalarlagina ko'rish mumkin edi. G'orning bir burchagida diametri ikki metr kelgudek bir shar turardi.

Uning oynadek silliq yuzi yurug'likdan jilvalanib yaltirardi. Sharga tikilib qolgan Malik uni qayerdadir ko'rgandek bo'lsa-da, sira eslay olmadi. Usmon afandi bir u yoqqa, bir bu yoqqa yurib ko'rib, oxiri g'or devorining yonida turgan Zamiraning oldida to'xtadi.

— Biz bu yerdan qanday chiqib ketamiz. Siz g'or eshigini ochishni ham bilasiz-ku, — dedi ehtiyyotlik bilan.

— Jim bo'ling, lozim topilganda chiqib ketishning iloji topilib qolar, — dedi qiz, unga qaramasdan.

— Juda sovuq ekan bu yer.

— Keyin isib ketasiz.

Zamira g'or devoridan yapaloq bitta toshni olib, ochilgan tuynukka qarab:

— Sayohatimiz joyida bo'ldi, men hozir huzuringizga boraman, — dedi va bir zum kutgandan keyin yapaloq toshni joyiga qo'yib qo'ydi.

Gapirish uchun og'iz juftlagan Usmon afandi Zamiraninig sovuq, chaqchayib turgan ko'zlariga ko'zi tushib badani junjikib yuragi orqaga tortib ketdi. Unga og'iz ochgudek madori ham qolmagandi.

6

Nuril shongviy yo'l yoqasidagi baland imoratning oynali eshigi ustida alohida ko'zga chalinib turgan «Qahvaxona» degan yozuvga ko'zi tushgandagina ochiqqanini his qildi. U erta bilan shoshilib ikki-uch qultum sut ichibgina yo'lga chiqqandi.

Qahvaxonada odam ko'p emas edi. U xizmatkor keltirib bergen bir likopcha to'rtti ishtaha bilan yeb, ortidan ikki piyola qahvani huzurlanib ichdi. Qornini to'ydirib oq yurishni odat qilmagan shongviy xizmatkor dan bugungi gazetalarni bor-yo'qligini so'radi, xizmatkor ikkita gazetani keltirib, bu gazetalarni besh daqiqa ilgari olganini aytib qo'ydi.

Shongviy qo'liga ilingan birinchi gazetaning sarlav-halariga tez ko'z yugurtirib chiqib, qiziqarli biror xabarning yo'qligidan yuzini burishtirdi. Ikkinchisi gazeta «Qiziqarli xabarlar» edi. Odadta qaysi millionerning qanday go'zal xonimga uylanganligini, qayerda qanday o'g'irlilik yuz berib, qanchalik mol-mulkning yo'qolganligini, bir mashhur xonim boqib olgan bolaning yangi chiqargan qiliqlari...ga o'xshash kundalik oldi-qochdi xabarlar bosilib turadigan bu gazetani Nuril shongviy

yoqtirmasdi. Shunga qaramay, mazkur gazeta tirajining ko'p bo'lishi uni hayron qoldirardi.

Shongviy gazetaning birinchi betiga behafsala bilan qarab qo'yib taxlab qo'ymoqchi bo'ldi, biroq «Oyni etak bilan yopib bo'lmas» degan sarlavhaga ko'zi tushib, to'xtab qoldi. Muallifning Zamira ayol jinsidan bo'lishi ham uni qiziqtirib qoldi.

U avval maqolaning u yer-bu yeridan cho'qilab o'qidi. Maqola ta'sir qildimi, tutash qoshlari chimirilib, chehrasi o'zgardi. So'ngra gavdasini o'rindiqning suyanchig'idan ajratib, biroz engashgan holda to'liq o'qiy boshladi. Maqolaning mazmuni tez ta'sir qiladigan dordan ham kuchliroq bo'ldi. Shongviy gazetani g'ijimlab buklab yerga irg'itib yubordi. G'azabdan uning rangi oqarib, iyagi qimirlab ketdi. Shongviy barmoqlarigacha qaltirayotgan qo'lini biroz stolning qirrasiga, biroz tizzasiga qo'yib, lom-mimsiz anchagina o'tirib qoldi. Xizmatkor undan yana nima lozim ekanligini so'rab kelgandagina u cho'chigandek bir silkinib o'ziga keldi va o'zining hozirgi holatidan norozi bo'lib bosh chayqadi.

Shongviy buklangan gazetani olib tekislab o'z ko'zlariga ishonmagandek yana qaytadan o'qiy boshladi: «XXI asrning boshidayoq yuksak taraqqiyot yo'lida ildam odimlayotgan jamiyatimizda olimlarimizning har bir kashfiyotlari fuqarolarning xotirjam hayot kechirishlari yo'lida xizmat qilishiga aylangan bo'lishi kerak. Ammo ming afsuski, amalda bunday bo'lmay ham hanuz dunyo o'zga sayyora odamlarining tahdidiga duch kelmoqda. Uchar likopchalarning yilda bir-ikki paydo bo'lishi ham ofat tusini oluvchi ziyon zahmati insonlarni aqdan ozgudek holatga tushurib qo'ymoqda. Insonlar bu ko'zga ko'rinnmas tashqi kuchlarning zarbasidan o'zini muhofaza qiladigan tadbirdan mangu mahrum bo'lib o'tib ketisharmikan? Biz bu savolga yo'q deb javob beramiz. Chunki biz ham o'zimizni muhofaza qila oladigan kuchli tadbirlarni o'ylab topish iqtidorlariga egamiz. Bu hargiz asossiz gap emas. Ishonchli hujjatlar shuni ta'kidlaydiki, bizning olimlarimiz uchar likopchalarni jilovlaydigan yangi, ilg'or qurolni kashf qildi...»

Muallif bu kashfiyotning yaratilganligini isbotlash uchun, o'g'irlangan loyiha, «Ilonli» degan qo'riqning tashqi sayyora odamlari tomonidan portlatib yuborilganligidan tortib, loyiha kashfiyotchisining o'g'li tasodifiy bir

tarzda qutqarib qolninganligini, hukumat izlarini yo'qtib yuborish maqsadida qo'riqning tekislab yuborilganligini, laboratoriya tekshiruvi xulosasi qanday bo'lganligini nihoyatda tushunarli qilib bayon qilgandi. «Men mana shu sirli voqeani mavzu qilib fantastik hikoya yozgan Usmon afandi ham mashhur professorning o'g'li loyihani saqlab qolgan Malik bilan ko'rishdim. Ular sodir bo'lgan voqe, ham kashfiyat haqida samimiylilik bilan gapirib berdi. Vaholanki, hukumat doiralari bu ulug' kashfiyotning yaratilganligini yashirib kelmoqdalar. Asosiy qonunimizning 47-moddasida: (Fuqarolarining manfaati va ularning xotirjam yashashini maqsad qilib yaratilgan har qanday bir kashfiyat sir saqlanmasligi kerak?) deb ko'rsatilgan. Biz xotirjam yashashni bir kun, bir soat bo'lsa-da oldinroq boshlashni istaymiz. Nahotki, hukumat idoralari fuqarolarining bu orzusiga hurmat bilan qaramasa...»

Maqolaning o'rtasiga Malik bilan Usmon afandining rasmi berilgandi. Maqola dalil-isbot bo'lib, o'qigan odamda ishonmaslikka o'rın qoldirmasdi. Muallif yana «llonli» degan nomni xaritadan topib bo'lmashigiga shuh-halanuvchilar bo'lsa borib, tekshirib ko'rishlarini tavsiya qilgandi.

G'azabini zo'rg'a bosib turgan Nuril shongviy ichida: har qanday qurol uskunalarni oldindan e'lon qilib bo'lmashigini bilmasdimi, deb o'zicha g'oyibona hujunga o'tganday bo'ldi. Shu payt uning kallasida Zamira degan bu muxbir asli kim? U professorning o'g'li bilan qanday tanishib qolgan? Agar Malik bu voqeani Zamiraga aytib bergen bo'lsa, Usmon afandiga aytib qo'yganligidan saboq olmagan bola buni dadasidan ham yashirmsligi kerak edi-ku? — degan bir qator savol paydo bo'ldi. Shongviyning yuragi taka-puka bo'b qoldi. Uni tadqiqot o'tkaziladigan joyga qancha tez borsa shuncha yaxshi bo'ladigandek bir tuyg'u uni joyidan turg'azib yubordi.

Nuril shongviy mashinasini bir chetda qoldirib, tadqiqot o'tkazadigan xona eshididan kiriboq, tadqiqot binosining oldida gulchi otaxon bilan uchrashib qoldi.

— Afandi, — dedi muloyimlik bilan qo'l qovushtirib, — hamkasblaringiz sizni qidirib yurishgandi. Menga sizni ko'rib qolgudek bo'lsam bo'lak yerga ketib qolmasligingizni aytib qo'yishimni so'ragandi. Shongviy shu zahotiyoy o'zi bilan ratsiyani olmaganiga pushaymon

yedi. Hozir unga ratsiya har qachongidan juda zarur. U beixtiyor birinchi marta ko'rib turgan qariyaning hali ham baquvvat, ammo biroz egik gavdasiga nazar tashladi. Uning soch-soqollari qorday oqarib ketgan bo'lsa-da yuzida ajindan asar yo'q, chertsang qon tomadiganday. Shongviy qiziqsindi:

— Meni ma'zur tutasiz otaxon, — dedi muloyimlik bilan o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, — men yangi kelganligim bois siz bilan tanishish fursatiga ega bo'lolma-gandim, bu yerda anchadan buyon ishlaysizmi?

— Sakkiz yilcha bo'lib qoldi, afandim. Shongviyni qariyaning gavdasiga mos kelmaydigan yo'g'on ovozi hayron qoldirdi.

— Aybga buyurmaysizda otaxon, necha yoshga kirdingiz?

— Yetmish sakkizga, afandim.

— Nihoyatda ruhiy bardam, ham tiyrak ko'rinasiz.

— Ha, afandim. Umrim gulchilik bilan o'tgan, balki, shundandir.

Qariya cho'qqi soqolini silab qo'yib mammuniyat bilan kulimsiradi. Shoshilib turgan shongviyga uning kul-gusi xuddi uni mazax qilayotganday g'alati ta'sir qildi.

Ishxonasida yolg'iz o'tirgan professor Nuril shong-viyni ko'riboq, o'rnidan turib gapirib ketdi:

— Qayoqqa yo'qolib ketdingiz muhtaram janoblari, biz shuncha qidirib daragingizni topolmadik. Biron yerga bormoqchi bo'lsangiz qo'ng'iroq qilib qo'ysangiz bo'lmaydimi? O'ylamagan joydan mutlaqo kechiktirib bo'lmaydigan zarur ishlar chiqib qoladi. Men tushuman, biroq birga ishlaydigan bo'lgandan keyin doimo bir-birimizdan boxabar bo'lib turishimiz juda muhim hisoblanadi, — dedi professor shongviydan o'zining ran-jiganini yashirmay.

Shongviy o'zining qayerga borganligini, nima uchun aytib qo'yaganligini bir necha og'iz so'z bilan tushuntirib, uzr so'radi.

— Bugun bu yerda, — professor yer osti uy ichida degan ma'noni bildirmoqchi bo'lib, tovoni bilan polni yengilgina urib qo'ydi, — yana bir hayron qoladigan ish sodir bo'ldi. Kuzatuvchilar zalda qadam tovushini eshitib qolgan. Yordamchingiz darhol atrofni qamal qilishni buyurgan, ular bir odamning g'ira-shira soyasinigina ko'rgan bo'lsa-da, lekin bu odam havoga singib ketgan-

dek g'oyib bo'lgan, u o'zidan aqli biror iz ham qoldirma-gan. Ishxona — bo'limidan tekshirib ko'rdik, hech qan-day ziyon-zahmatga uchragan ahvol payqalgani yo'q.

Nuril shongviy iyagini silab o'tirib qoldi.

Sizningcha bunday holatni qanday tushinmoq ke-rak? — deb shoshiltirdi professor.

Birinchi harakat Nuril shongviyning «Ilonli»da turib «ularga moslashayotgan odam ichimizda bor» degan qarori tasdiqlangandi. U qo'lini iyagidan olib professorga qaradi.

— Men sizning fikringizga qo'shilaman, hurmatli pro-fessor. Loyihani bir chetga surib qo'yib yuz bergen voqealarga haqiqatan ham tashqi sayyoralarining odamlari qo'l urgan. Ular loyihani qidirishmoqda, loyihani qo'lga kiritish umidini ham aynan mana shu binoga qaratish-moqda. Bu biz uchun foydalidir.

— Men sizni tushunmadim, qadrli shongviy, uning nimasi foydali — professor achchig'langanday qarab qo'ydi, — ular qidirishadi, qidirishadi. Oxiri kelib «Ilonli»ni portlatib yuborgandek butun binoni kulga aylantirib yuborishadi. 3-nomerli uyni esingizdan chiqar-mang shongviy.

— Agar ularning niyati shunday bo'lsa, siz bilan men bu yerda gaplashib o'tirmagan bo'lardik.

Professor jim bo'lib qoldi. Ammo jiddiylik ilkidan hali xalos bo'lmagandi. Shongviy uning gazetani ko'rman-giliga ko'zi yetib so'radi:

— Siz «Qiziqarli xabarlar» gazetasining yangi sonini ko'rdingizmi?

— Vaqt qani unga... — Shu payt telefonda sust, qisqa signal eshitildi. Professor tugmani bosib: «nima gap, men sizga hech kimni qabul qilmayman, demaganmidim?» — dedi jahl bilan.

— Hurmatli professor... gazetada bizni yozibdi... «Qiziqarli xabarlar»... — dedi dovdirab qolgan qiz qo'lidagi gazetani ushlagancha.

— Gazetani olib kiring, — shongviy professor uchun javob berayotgan ekran tugmasini bosib qo'ydi.

Oyog'inining uchida bosib kirgan kotiba qizning rangi o'chib ketgandi. U professorning asabiyashib turgan qiyofasiga qo'rquv bilan qarab qo'ydi, qo'lidagi gazetani shongviya uzatdi va uning ishorasi bilan qanday kirgan

bo'lsa, yana shunday oyog'ining uchi bilan yurib, eshik-dan chiqib ketdi.

Professor maqolani o'qib bo'ldi. U avval bu qanday ish deganday shongviya qarab qo'ydi, keyin boshini changallagancha gandiraklab borib o'zini o'rindiqqa tashladi.

— Hali sinovdan o'tmagan bu kashfiyot olamga ovoza bo'lib ketadigan bo'ldi. Biz «Ilonli» voqeasini ming bir mashaqqatda yo'qqa chiqargandik. Oh, bu qanday rasvochilik, — professorning ovozi yig'lamsiraganday entikib chiqardi, — mana endi xalqaro ilm-fan uyushmasi maxsus odam yo'llab, to'liq surishtiraverib boshimizni qotirib yuboradi. Shunday muhim kashfiyotni yashirib yuribsan, deb hali ayblashishlari ham mumkin. Bilasizmi, mening bu ishni boshlaganimga olti yil bo'ldi, rosa olti yil! Sir ochilib ketdimi bo'ldi, hamkorlar ham topiladi. Do'stlaringiz ham ko'payadi, dushmanlardan ham xoli bo'lmaysiz. Mana shu muxbir degan tizginsiz maxluqlarning bizga nima keragi bor-a!

Birdaniga qarib qolgandek munkayib qolgan profes-sorga Nuril shongviyning ichi achishib ketdi.

— Ko'nglingizni cho'ktirmang, asabingizni buzmang. Professor janoblari, biz bu xabarning tarqalib ketishining oldini albatta olamiz, maqola ko'rinishdan qo'rquinchli bo'lgani bilan dalil-isboti yetarli emas. Ammo, biz bunday kashfiyotning mavjud emasligi haqida isbot topib bera olamiz, bu tomoniga maxfiylik idorasi hamkorlashadi. Shongviy professorning yoniga kelib o'tirib yelkasiga qo'lini qo'ydi, — xotirjam bo'ling, menga ishonavering, — dedi u ishonch bilan, — kashfiyot sizniki. Ammo, oldimizda bundan ham battar chigalliklarga duch kelishimiz mumkinligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Meningcha ular taktik usullarini o'zgartirib, bizga ruhiy bosim o'tkazishmoqda.

— Siz yana nima demoqchisiz?

— Ular loyihani o'g'irlashga intilishmoqda. Shu bugungisi bilan uch marta urinib ko'rdilar. «Ilonli» voqeasi biror odamning ko'ziga tushib qolgan, deb faraz qilgan holda ham, 3-nomerli uyning kulga aylanishini hech kim bilmaydi. Shunga qaramay u yerda yuz bergen ahvol maqolada ancha nozik yozilgan, demak, bularni shulardan boshqa odam yozishi aslo mumkin emas. Agar maqolani o'zimizning muxbirlarimiz yozgan desak, ular

eshitganlarini ishonchli ravishda ko'rsatish uchun avval biz bilan uchrashgan, ana undan keyin gazeta va jurnalarda «shamol chiqarib» dovrug' solganini qat'iy inkor etsak, jimb qolgan bo'lardi. Afsuski, bu sirli voqeа ustiда hozirgacha biron ta odam bizni bezovta qilgani yo'q.

— Malik bilan haligi kim edi-ya...

— Usmon afandi.

— Ikkalasining surati, Malik mening o'g'lim ekanligi isbot-dalil bo'lolmaydimi?

— Yo'q bo'lolmaydi, hurmatli professor, — shongviy qat'iylik bilan bosh chayqadi, — ammo yana shuni ham e'tirof etmay bo'lmaydi-ki, bu maqola katta shov-shuvga sabab bo'lmay qolmaydi. Mayli do'st yoki dushman bo'lzin, hammasining diqqati bizga qaratiladi, bizga bo'lgan bosim ham kuchayadi. Bugungi ahvolda loyiha ning fosh bo'lib qolishidan saqlanish qiyin. Ularning kutganlari ham aynan shu. Kechirasiz, kayfiyattingiz anchagina yaxshi emas, shunga qaramay sizdan bir ahvolni so'rashga majburman. O'g'lingiz Malik sizga Zamira ismli muxbir qiz bilan tanishligi barcha-barchasini aytganmidi yoki shunday bir qiz Malikni qidirib uyga kelganmi?

Professor qoshlarini chimirib o'ylandi.

— Aniq bir narsa deyolmayman, ammo uyimizga kelmaganiga ishonaman, o'g'lim ham qizlar bilan bordikeldi qiladigan yoshda emas.

Shongviy yana so'radi:

— Malik bugun uydami?

— Albatta uyda bo'ladi-da, boshqa qayerda ham bo'lardi, tashqariga kamdan kam chiqadi.

— Malol kelmasa xonimingizdan so'rab ko'rsangiz yomon bo'lmasdi.

Bu gapdan keyin tashvishi yanada ortgan professor qayta o'midan turib, oilaning telefon raqamlarini bosgandi, televizor ekranida uning yosh go'zal xonimi ko'rindi. Yosh xonim erining savoliga erta bilan bozorga chiqqanligi, qaytib kelsa telefon tasmasi Malikning o'qituvchisi Usmon afandining chaqirtirishi bilan chiqib ketganligini aytib bergenligini, Malikning hozirgacha kelmaganligidan xavotirlanib o'tirganligini aytdi.

Jiddiylikni hali butkul his etmagan professor nima deyishni bilmay duduqlandi. Shongviyning ko'z ishorasi-



ni tushunib, xonimini xotirjam qiladigan bir necha og'iz gapirib tugmani tez bosib qo'ydi.

Nuril shongviy soatiga qarab qo'yib yordamchisini chaqirdi.

— Siz bir minut ham kechikmay o'quv markaziga borib, Usmon afandining bor-yo'qligini aniqlang, — dedi darhol kirib kelgan yordamchisiga ahvolni qisqacha tushuntirib, — undan keyin «Qiziqarli xabarlar» muharriyatiga borib, Zamira ismli muxbirni surishtiring. Tushundingizmi?! Unday bo'lsa tez harakat qiling.

Toqatsiz daqiqalar boshlandi. O'quv markazi bilan redaksiya shaharning ikki chetida bo'lganligi uchun ancha kutishga to'g'ri keldi. Har ikkalasi xayol bilan band bo'lib unsiz o'tirishardi. Professor o'g'lini o'ylardi. Nuril shongviy esa, Usmon afandining nima uchun Malikni chaqirganligi, ularni Zamira bilan qanday aloqasi borligining tagiga yetolmay xunob bo'lardi. O'n uch daqiqadan keyin shongviyning kissasidagi ratsiya signal berdi:

— Usmon afandi uyida yo'q ekan. Qo'shnilaridan biri uning erta bilan soat to'qqizlarda indamay o'n to'rt yashar chamasidagi bir bola bilan ketganligini aytib berdi, ammo ular qayerga ketganligini bilmas ekan. Qo'shnisining aytganlariga qaraganda bu bola Malikka o'xshaydi.

Professorning boshi tushib ketdi, indamadi. Shongviy soatiga qaradi. Millar o'n ikki yarimni ko'rsatib turardi. Ko'ngliga kelgan gumondan jiddiyasha boshlagan shongviy tamaki chekmasada, yoniga solib qo'yadigan hidli tamakidan birini olib, professordan ijozat olmasdan tutashtirib cheka boshladи.

O'ttiz to'rt daqiqadan keyin ratsiya ovoz berdi.

— Tahririyatda Zamira ismli muxbir bor ekan. Menga uning rasmini ko'rsatishdi. Muxbir qiz ertalabdan buyon redaksiyaga kelmabdi. Bo'limdagilar u turadigan mehmonxona bilan bog'lanishibdi. Ularning aytishlaricha, muxbir qiz ertalab soat yettida chiqib ketgan ekan. Hozirgacha kelmabdi, uning qayerga ketganligini ular ham bilishmas ekan.

Nuril shongviy yordamchisiga: Muxbir qiz bo'limda qachon paydo bo'lsa o'sha zahotiyoy tadqiqot markaziga kelsin, demoqchi bo'lgandi, biroq shu zahotiyoy niyatidan qaytdi. Unda Usmon afandi, Malik va muxbir qizning ertalabdanoq uyida bo'lmasligi ular o'rtasida qandaydir bir munosabat bordek, ularning qaytib kelishlari

ham ancha mushkul ishdek bir tuyg'u paydo bo'lgandi. Shongviy o'zining kechikkanligini anglab labini tishladi. U har ehtimolga qarshi redaksiya bo'limi va Usmon afandining uyi atrofiga kuzatuvchi qo'yib qo'yishni yordamchisiga tayinladi.

Kotiba qiz bu safar telefon orqali gaplashmay eshikni taqillatib kirib keldi.

— Hurmatli professor janoblari, — dedi u qo'rqqanday ostonada turib, — xalqaro ilm-fan uyushmasining telegrammasini oldim. Yana besh daqiqadan keyin uyushma raisi siz bilan gaplashmoqchi ekan. Bu gapni eshitgan professor «endi menga shu yetmay turuvdi», deganday xafsalasi pir bo'lgan holda o'midan irg'ib turib ketdi. Uch soatdan buyon o'g'lidan xabar bo'lmayotganidan qayg'urib o'tirgan professorning rangi go'yo dahshatli maxluqqa yo'liqib qolganday oqarib ketgandi. U «Qiziqarli xabarlar» gazetasidagi xabarlarning xalqaro ilm-fan uyushmasiga bunday tez yetib borishini o'yalmagan edi. Zarba to'satdan berilgandi. Hali ishxonadan chiqib ketmagan Nuril shongviy ham bo'shashib qoldi. Uning vujudida qattiq g'azab-nafrat junbushga kelib titrab ketdi. Professorga hamdardligi oshib borayotgan shongviy agar shu yengiltak tannoz muxbir qiz o'z odamlaridan bo'lib, oldida turgan bo'lganda, har qanday cheklanish bo'lishiga qaramay, uning upa-eliq surtilgan basharasiga kelishtirib tarsaki tushirishdan o'zini tutib qololmagan bo'lardi.

U soatiga qarab qo'yib, professorni shoshiltirdi: — Vaqt o'tib qoldi, hurmatli professor, men chiqib turay.

Professor bemor odamday inqillab turayotib, qo'li bilan chekmay turing, degan ishorani qildi. So'ngra oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib telefon oldiga keldi va kerakli raqamlarni kuchanib bosdi. Televizor ekranida yoshi anchaga borib qolgan bo'lishiga qaramay hali tetik, endigina sochlariqa oq oralagan, barvastadan kelgan uyushma raisining bo'y-basti paydo bo'ldi. U qisqa salom-alikdan keyin maqsadga ko'chdi:

— Quloq sol boboy, kelgan hisobot dokladlardan qaraganda, boyagi uchar likopchalar degan balo-qazo zaminimizning havo bo'shilg'ida paydo bo'libdi. Buning

shubhali joyi shundaki, juda balanddan uchib kelmoqda ekan. Yo'nalishini o'zgartirmay mana shu sur'atda uchsa, yana 40 daqiqadan keyin sening ustingda paydo bo'ladi. Davlat xavfsizlik organlarining hammasi bundan xabar-dor, fuqarolar ham besh daqiqadan keyin xabar topisha-di. Qanday tadbir qo'llashga kelsak, bu Davlat xavfsizlik organlarining ishidir. Lekin, sen bilan men mas'uliyatimizni ado qilolmayotibmiz. Ko'rmasanmi, bu ofat bizni pisanda qilmay bosh ustimizda xohlagancha aylanib yurmoqda, keltirgan zarari ham oz emas. Men olimlarni yana bir bor yig'ib, biror muvofiq takliflari bor-yo'qligi ustida maslahatlashmoqchiman. Bunga sen nima deysan, balki takliflaring bordir?

Professor nima deyishini bilmay sarosimada qoldi:

- Hozircha hech gapim yo'q, — dedi u shoshib.
- Buni qanday tushunish kerak?
- Pishmagan xom xayol...
- Hechqisi yo'q, pishmagan bo'lsa ham bo'laveradi.

Indinga ertalab soat to'qqizda kutaman, hammamiz bir-galikda pishmaganni pishirib olarmiz. Salomatliging galay, ranging o'zgarib qoptimi?

— Grippni alomati bo'lsa kerak... Nima deyapman, bugun kayfiyatim yo'qrog'.

— O'zingni asragin boboy, yosh xoniming durustroq qarasin. Ha, darvoqe xonimingga mendan salom aytib qo'y. Indingga ertalab soat to'qqizda ko'rishguncha xayr, yana esingdan chiqib qolmasin.

Professor virusi quritilib, tamomila yo'qolganiga uch yil bo'lgan gripp kasalligini tilga olib, valdirab qo'yishiga sal qoldi. Uning peshonasi va taqir boshida ter tomchilari yaltirardi. Raisning o'zini tutish va so'z mazmuniga qaraganda, boyagi shum xabarning hali yetib bormaganligi ma'lum bo'ldi. U shu tobda go'yo og'ir yukdan qutilgandek chuqur uf tortib yana o'rindiqqa cho'kdi.

- Menga javobmi? — dedi shongviy.

Professor unga yer ostidan xo'mrayib qarab qo'ydi.

- O'g'limning masalasi-chi?
- Endi quruq tasalli bilan vaqtinigizni olishni xohlamayman. Menga o'ylab olishim uchun o'n daqiqa vaqt kerak. Keyin yana gaplashamiz.

— Mayli, ixtiyorungiz.

Zinadan shoshilmay tushib kelayotgan Nuril shongviy



uchar likopchalar paydo bo'ldi, degan xabarni eshitgandan buyon, yuragida daqqaq sayin kuchayib borayotgan gumon ostida mulohaza qilardi: Uchar likopchalar odatta past uchardi ham ko'zni yumib ochguncha xohlagan yerga borib bo'lardi. Uning baland uchishida biror sabab bormikan. Yana 36 daqqaq vaqt bor. Agar uni Malik uchun keldi, deb faraz qilsakchi. U chog'da Zamira yoki Usmon afandini nima deb tushunmoq kerak?

U qo'rjincli fikrdan to'xtab qoldi va bu dahshatli xayolni o'zidan qancha nari qilishga urinsa-da, undan qutilolmadi. «Avval maxfiylik idorasi bilan gaplashib ko'ray, — dedi ichida, — shahar atrofini, barcha burchak-teshikdan Malikni qidiraylik. Topilmasa so'ngra bir xulosaga kelarman».

Shongviy maxfiylik idorasi bilan tezroq gaplashish uchun qadamini tezlatdi. Xonasiga yetib kelgandan keyin, qufni maxfiy ko'rsatgichga to'g'rilib ochib kirdi. Uning telefon nomeriga uzatilgan qo'li yarim yo'lda to'xtab, bir varaq qog'oz ustiga tushdi.

«Janobi Nuril shongviy, — deb o'qidi u, — siz uchun dunyodagi odamlar o'rtasida yuz bergan voqeа-hodisalarning payiga tushib, kalavaning uchini topish har holda osondir, shunda ham bu sizning tolihingizga bog'liq. Ammo, tashqi sayyoralar odamlariga nisbatan aytganda, talay sinovlarga urinishingiz behuda ovoragarchilikdan o'zga narsa emas. Faqat tushungizdagina bizning izimizga tushishingiz mumkin. Bu hargiz mubolag'a emas. Siz qidirib, tekshirib, mulohaza qilib to bir fikrga kelib bo'lguncha, biz ishimizni tugatib yer yuzidan uzilib bo'lamiz. Bu safar Usmon afandi va Malik biz bilan birga bo'ladi. Xuddi mana shu daqiqalarda ular ikkovi Zamira xonimning qo'lida tutqun bo'lib turishibdi. Agar oxirgi daqiqalarda Malik bilan Usmon afandini qaytarib olishni xohlasanglar bunga ulgurasizlar. Bu taklif, albatta, shartsiz emas. Biz ega bo'lmoqchi bo'lgan «Shafaq — 301»-ning loyihasi bizning qo'limizga tekkanda, Malik bilan Usmon afandi ham oldingizga qaytadi. Siz ham, hurmatli professor ham bizning texnikamizning cheksiz yuqori qudratli ekanligini tushunasizlar. Loyiha asli, nusxa bo'lishi, bitta nuqtasi ham o'zgartirilmagan bo'lishi kerak. Bizni aldashga (bu mumkin emas) urinsanglar almashtirishning oqibati sizlar uchun ko'ngilsizlik bilan yakunlanadi. Men bilan bog'lanishingiz uchun tele-

foningizning 8,1,2 nomerini mana shu tartib bo'yicha bosishingiz kerak. Men telefoningizni mana shu gaplashib turgan nomerlar orqali biz bilan aloqa bog'laydigan qilib o'zgartirib qo'ydim. Men bilan birgina marta gaplasha olasiz. 15 daqiqa vaqt beraman. Undan oshirib yuborsangiz o'zingizdan ko'ring. Men sizni aqlli odam, deb bilib ham hurmat qilaman. Biz endi yuz ko'risholmaymiz. Xayr, gulchi boboy».

Nuril shongviyning tishlari g'ijirlab ketdi. Bir zum uning ko'z oldida haligina hovlida ko'ringan gulchi cholling yuz ko'rinishi namoyon bo'lib, alamdan mushtlari tugildi.

Qari tulki, shuning uchun miyig'ingda kulgan ekansan-da.

So'kinish, asabiylashish, qizishish bilan qo'ldan chiqib ketgan narsani qaytarib olib bo'lmaydi. Bu odamlar sezgirlik va harakatda shunchalik yuqori ham tez ediki sen masala tagiga yetib bo'lguncha ular ishni bitirib g'olib chiqishardi. Nuril shongviy yuz bergen ishlarni tahlil qildi, kuzatdi. Oxiri «bu odam, o'z ichimizda» degan xulosaga kelib, hali ishni qayerdan boshlash kerakligi ustida o'ylashga ulgurmey turiboq, ular uning burnining ostidan chiqib ketdi. Endi o'ylashga vaqt ham qolmagandi.

— Tavakkal qilishdan boshqa ilojimiz yo'q, — dedi u ovozini chiqarib, — yoki Malik, Usmon afandi, yoki «Shafaq». Agar loyiha ularning qo'liga tushib ketsa, u holda bu quroqning qimmati ham qolmaydi. Gulchi chol hozir Zamira bilan birga. To'xta, ular Malik bilan Usmon afandini uchar likopchaga qanday olib chiqishdiykin?!

U tavakkalchilik qilish deganda nimani tavakkal qilishi hali o'zi ham yaxshi bilmasdi. Ammo, uzil-kesil ishonchi bo'lmasa-da, ko'ngilda xira bir umid paydo bo'lgandi. U hozir ikki ishni bajarishi kerak edi. Biri, professor bilan ko'rishib, almashtirish haqidagi taklifga uning qanday fikrda bo'lishligini bilish, yana biri, ahvolni maxfiylik idorasiga ma'lum qilib maslahatlashishdir. Shongviy Maliklarni qidirish fikridan voz kechdi, har qancha axtarganining bilan ularni baribir topolmasligiga ko'zi yetib qolgandi.

U ishxonaga kirganda professor avvalgi o'rnida o'sha-o'sha holicha o'tirardi. U boshini ko'tarib ham qo'ymadni.

Balki shongviyning kirganligini ham sezmagandir. Hozir ayab o'tiradigan vaqt emas edi. Nuril shongviy professoring oldiga kelib, gulchi cholning xatini unga uzatdi.

— Hurmatli professor, men ancha ilgariyoq sizga bundan keyin yanada og'ir ishlarga duch kelishingiz mumkin, deb aytgandim. Mana shunday ishga ham duch keldik. Bundan qutulishni eng yaxshi chorasi, o'zimizni qo'lga ola bilishdir. Bu xatni o'qib chiqing. Bundan keyin nima qilishingiz kerakligi to'g'risida gaplashaylik.

Uning odatdan tashqari o'ta jiddiy lashgan chehrasiga ko'zi tushgan professor indamasdan xatni olib o'qiy boshladi. Undagi har bir o'zgarishni kuzatib turgan shongviy professorni bo'zarib ketgan yuzida biror bir qayg'uga tushganlik alomatini payqamaganligiga ajablandi.

— Men shunday bir ishning yuz berishini ichki bir tuyg'uda sezib turardim, — dedi professor xatni o'qib bo'lib kutilmagan bir xotirjamlik bilan.

— Sizningcha qanday qilsak yaxshi bo'ladi?

— O'g'lim uchun jonimni ham berishga tayyorman. Va leykin?..

Shongviy boshqacha javob bo'lishini ham kutmagan-di.

— Albatta shunday ham bo'ldi. Menimcha ham shunday bo'lishi kerak edi, — dedi u quvvatlashga shoshilib, sizning maslahatingizni oladigan yana bir ish ham bor edi. Ya'ni...

— Aytavering, qulog'im sizda.

— «Shafaq» sinovga tayyor, shundaymi?

— Shunday.

— Faqat uchar likopcha kelsagina.

— Menda shunday bir fikr bor. Biz eshitgan xabar ham xatning mazmuniga qaraganda, uchar likopcha yana 28 daqiqadan keyin yetib keladi. Uning uchish sur'atining sekinlashishi bu yerdagi odamlarning maqsadiga yetgan-yetmaganligi bilan bog'liqdir. U o'z odamlarining xabarlarni kutishmoqda, xabarni eshitgan zahoti yashin tezligida yetib keladi. Baland uchishidan sabab esa, har xil ehtimollarni nazarda tutib ehtiyyot qilishganligidadir. Mayli qanday bo'lmasin, u qat'iy keladi. Men hozir gulchi cho'l bilan gaplashib, ularni shartiga rozi bo'lganligimizni bildiraman. Shu bilan bu ish ham tugaydi.

Ammo, siz bunday kam uchraydigan fursatda

«Shafaq»ni sinab ko'rsangiz yomon bo'lmasmikan deb o'yayman?

Professorning qoshlari tutashdi uning qotgan yuzida hayajonlanish alomatlari ko'rindi.

— Bu sinov bordi-yu o'g'limni hayotga qaytib keli-shiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolsa-chi, — dedi u ikkilanib.

— Ularning harakatlariga qaraganda, odamlarga zarar yetkazish niyati yo'q, unday niyat bo'lganda sizni o'g'rilib ketgan bo'lishardi. Ular rejalari amalga oshib, niyatlariga yetgandagina loyihaga ega bo'lishgandan keyin Malik bilan Usmon afandini qo'yib yuborishadi. Biz ham bu shartni qattiq qo'yamiz.

Shongviy professordan gulchi chol bilan Zamiraning yerdan uchar likopchaga qanday qatnov qurolini ishlatalishini so'ramadi, so'raganda ham professor bu savolga aniq javob berolmasdi. Qatnov quroli! O'sha ko'z oldiga keltirish qiyin bo'lgan qatnov quroliga hujum qilib, loyi-hani saqlab qolib bo'lmasmikan? Professor ikkilanib tur-gan mana shu bir necha soniya ichida shongviyga tinchlik bermayotgan tavakkalchilikka urinishning rejasi shakllanib qolgandek bo'ldi. To'g'ri, bu rejalari to'liq shaklandi, deb ham bo'lmasdi. Tashqi sayyora odamlarining «shafaq»ning loyihasiga odatdan tashqari qiziqishi, uning amaliy kuchiga ishonganligini, hamda undan cho'chiganligini isbotlardi. Agar «Shafaq» ta'sir ko'rsatolsa, uchar likopcha yaqinlasholmaydi, u tarqatgan magnit maydonining ta'siri ham bo'lmaydi. U holda yerda turib, eng ilg'or qurollarning yordamida gulchi chol o'tirgan narsaga hujum qilish imkoniyati tug'iladi.

Nuril shongviy to'satdan shakllangan rejaning kuchi-dan joyida tura olmay, ishxonasining u betidan bu betiga yurayotib yana professorning oldida to'xtadi. U har qancha shoshilgani bilan ham, professor «Shafaq»ni sinov qilishga qo'shilmasa, reja quruq xayol bo'yicha qolardi.

— Qanday qarorga keldingiz, hurmatli professor? — dedi Nuril shongviy o'zini tetik tutishga tirishib.

— Menga endi uni sinab ko'rishning nima ahamiyati bor? Endi bu qurolni ishlatishni hech qanday zarurati qolmadni, — dedi u umidsizlik bilan.

Nuril shongviyga qarab qo'yib, o'rnidan turdi.

— 25 daqiqa qoldi, biz uchun har bir daqiqa juda qimmat, — dedi u xatni qaytib kissasiga solayotib, — ajab, siz olti yil qon-ter to'kib dunyoga keltirgan kashfiyoti-

ngizni natijasi qanday bo'lishiga qiziqmasangiz-a! Men olimning eng qo'rqaqidigani kashfiyotining natijasini ko'rolmay qolishdir, deb eshitgandim. Kechirasiz hurmatli professor, men sizda bunday qiziqishni bilmaganimga hayronman.

Gap ta'sir qildi shekilli, professorning tushib ketgan boshi asta ko'tarildi. Uning yuzi azob, g'ayg'u hasratdan burishib ketgandi.

— To'g'ri aytdingiz shongviy, — dedi uf tortib, — bu xuddi yangi tug'ilgan chaqaloqni ko'raman deb yetib kelguncha chaqaloq o'lib qolgandek achinarli ish. Men taklifingizga qo'shilaman.

— Unday emas, hurmatli professor. «Shafaq»ni sinash sizni xohishingiz bo'yicha bo'lishi kerak. Mening taklifimni yaxshi niyatda qilingan taklif, deb tushunishingizni xohlayman.

— Rahmat, men aynan shunday tushundim. Ammo, siz Malik bilan sog'-salomat ko'rishishimga va'da berishingiz kerak.

— Va'da dedingizmi? — Nuril shongviy ikki soniyacha o'ylanib qoldi, — men va'dani muqaddas so'z deb bilaman. Biz tashqi sayyora odamlari bilan bog'lanmoq-chimiz, ularni ham siz bilan menga o'xshash Olloh yaratgan. Barcha alomatlar o'g'lingiz va Usmon afandini omon qolishidan darak beradi. Mening burchim ularni himoya qilishdir.

— Xudo o'z panohida asragay, — bolaning joni va yaratgan kashfiyotining nom-nishonsiz yo'qolib ketish xavfi orasida qalbi pora-pora bo'lib ketayotgan professorning ko'zлari namlandi, — boring men sizga ishonaman. «Shafaq» sinovga tayyor, buyrug'ingizni kutaman.

Yuragi bir parcha bo'lib qolgan shongviy «Illohim, aytganingiz kelsin», deya zudlik bilan chiqib ketdi. Endigi vaqt va harakat uning ixtiyorida edi. Xavfsizlik idorasi Nuril shongviyning axborotini tinglab, ayrboshlash shartiga qo'shildi, shongviy gulchi chol qoldirgan telefon nomerini bosayotib, yana ularning uchar likobchasiga yetib borguncha o'tadigan vaqtini o'yladi, lekin nimagadir ko'ngli yorug' edi.

Telefon ekranida surat ko'rinnadi. Shongviy uni baland ovozidan tanidi.

— Men sizni ko'rib turibman qadrli Nuril shongviy

rangingizdag'i alomatlarga qaraganda taklifga qo'shilgan-dek ko'rinasiz.

Shongviy bu tashqi sayyora odamining gaplarini ich-ichidan otilib chiqqan g'azab va nafrat bilan eshitdi:

— Farazingiz to'g'ri, — dedi u tishlari orasidan gapi-rib, — loyihani qanday topshiramiz, odamlarimiz qanday qaytib keladi?

— Bir odamimiz tez sur'atda uchoqda Ko'ksyoning 167-kilometridagi yaydoqqa kelsin, men shu yerda kutaman. Esingizda bo'lsin, bizni aldashga, laqillatishga urinadigan bo'lsangiz, uchoq ham ortiga qaytolmaydi.

— Bizning odamlarimiz-chi?

— Xotirjam bo'ling, oldingizga sog'-salomat yetib boradi.

— Nima bilan xotirjam qilasiz?

— Biz va'damizga amal qilamiz. Bir jihatdan obro'yimizga putur yetkazadigan har qanday gap-so'zning tarqalib ketishiga yo'l qo'yamymiz.

Telefon uzildi. Shu zahoti orqadan professor bergen signal eshitildi.

— Men sinov maydonidaman, uchar likopcha yaqinlashmoqda, buyrug'ingizni kutaman, — dedi u qisqa qilib.

Nuril shongviy professor bilan gaplashib bo'lib, boshlandi, dedi o'z-o'ziga.

8

Odamlar hozirgacha sirli deb kelayotgan bu ajoyib metall maxluqning havo bo'shlig'ida paydo bo'lganligini juda sezgir kuzatish apparatlarining qizil chiroqlari lipil-lab yonib ma'lum qildi. Ammo u ekranlarda ko'rinsaldi. Shunday, u nima qilaman, desa shuni qila oladi. Xuddi yana shu sehrli kuchi orqali insonlarga unga qarshi turib bo'lmaydigan qudratni namoyish qilib, tahdid solib kelmoqda edi. U haqda ham qo'rqinchli, ham qiziqarli fantastik hikoya romanlar yozildi. Kinolar ishlandi, aqlga sig'maydigan rivoyatlar to'qildi. Kishilar uni ana shu hikoya, kino, rivoyatlar orqaligina bilishadi. Amalda uni yaqindan ko'rgan odam juda kam. Agar u odamlar tasavvur qilganidek, shuncha qudratli bo'lganda shu payt-gacha dunyo ostin-ustun bo'lib, hayotdan nom-u nishon ham qolmagan bo'lardi. Lekin, odamlar yashamoqda. Bugungi kundan qanoatlanibgina qolmay, yanada yaxshi-

roq kundarni umid qilib yashamoqda. Lekin u har safar paydo bo'lganda insoniyatga kishi bilmas zarar yetkazsa-da, odamlar shunga ko'nib ham qolishdi. Biz ham sayyo-ralarni tadqiq etmoqdamiz, ular ham tadqiq qilishayotir. Bizning boshqalarga teginish niyatimiz yo'q, ularning ham. Fan-texnika eng yuqori saviyada kamolga yetgan bir paytda, olimlarning boyagi sirlı metall maxluqini cho'chitib qo'ygudek biror yangilik yaratolmaganligi qiziq. Albatta, bu oson ish emas.

Nuril shongviy mana shularni xayoldan kechirarkan, professorni «Shafaq»ni sinovga ko'ndirganidan pushay-mon qilardi. Ichida Malik, Usmon afandi ham shart-lashuvga binoan Ko'ksoya ketgan uchuvchining omon-ligini tilab Xudoga iltijo qilardi. U Ko'ksoy tomoni hech bir to'siqsiz ko'rinish turadigan 27 qavatli binoning ustida turib, xohlagancha yaqinlashtirib ko'rsatadigan durbin bilan shu tomonni kuzatardi. Uchar likopcha o'zidan odam va hayvondan boshqa harakatdagi hamma narsani o'lik holatga tushirib qo'yadigan to'lqinni tarqatsa, uning kuzatishda birdan bir tayanadigan narsasi shu durbin bo'lib qoladi. Uchar gulchi cholning loyihami qo'lga kirit-ganligidan xabar topgandan keyingina to'lqinni tarqatib, odamlarning bexatar qaytib kelishini himoya qiladi.

U pastga qaradi. Uchar likopchaning kelganligidan xabardor bo'lib, tayyorgarlik ko'rib qo'yan shahar qabristondek jimjit edi. Shaharda hayotdan darak beradi-gan biror alomatni payqab bo'lmashdi. «Qanday ayanchli ko'rinish. — dedi shongviy xo'rsinib, — Shu tobda necha yuz minglab odam uylariqa qamalib, boshlariga kutilmaga qanday balo yog'ilishidan qo'rqib o'tirishgandir. Mana shunday choraszlikka xotima beradigan kunlar ham kelarmikan?» U og'ir xo'rsinib qo'lini orqasiga oldi.

Unga Ko'ksoyning tog'i, osilib turgan xarsang toshlar, archazorlar nihoyatda aniq ko'rinaldi. Uch daqiqa oldin, u olislab ketayotgan uchoqni ko'rgandi, endi ko'rolmadi. Shongviyning mo'ljalida uchoq manzilga yetib borib, uchuvchining gulchi chol bilan ko'rishadigan vaqt bo'lib qolgandi.

Shongviy kichik kissasidan ratsiyaning signalini eshitib, durbinini ko'zidan tushirdi. Signalning eshitil-ganligiga qaraganda, uchar likopcha hali to'lqin tarqat-magandi. Uchuvchi unga «qo'nish joyi noqulay bo'lgani

uchun, ochiq yerda to'xtab narvon bilan tushdim» deb javob berdi.

— Hammasi kelishilganday bo'lsin, ehtiyoj bo'ling, yana o'zingizni yo'qotib qo'y mang, — dedi shongviy biroz jiddiyashib.

Uchuvchi bilan gaplashib bo'lgandan keyin, o'zidan 57 kilometr olislikda, yer sathidan 20 metr chuqurlikdag'i yer osti tajribaxonasida kutib turgan professorni xabar-dor qildi.

— Hurmatli professor, uchuvchimizdan xabar keldi. Ular uchrashishdi, tayyor turing. Kelishganimizday mushakni ko'rib bir minutdan keyin sinovni boshlang. Odamlaringiz yana mushakni ko'r may qolib yurmasin, xuddi hamma ishimiz chippakka chiqadi-ya, ularga qat-tiq tayinlab qo'ying.

Nuril shongviy uchuvchi gulchi chol bilan uchrashuv-dan keyin ishlarni taxmin bo'yicha o'rinalashtirdi, shunday qilmay ham bo'imasdi. Uning taxminicha gulchi cholning loyihani tekshirib, odamlarni qaytarib berib, o'zlar qanday bo'imasin biror narsaga o'tirib, qo'zg'alguncha besh daqiqa vaqt o'tardi. Har ehtimolga qarshi mushak to'pponchasini olvolgan uchuvchi mabodo ratsiya ishlamay qolsa, mushak otib belgi berishi, bu ish ularning qo'zg'alishiga ko'zlar yetgandagina qilinishi kerak edi.

U durbin tutib turgan qo'llarining toliqib ketganiga qaramay, butun diqqati bilan Ko'ksoy tomonni kuzatardi. Toqatsizlikdan uning asab torlari taranglashib, boshi og'ib, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Vaqt esa juda asta o'tayotgandek tuyulardi. Hatto mo'ljallangan vaqt o'tib ham ketgandek. Toqati toq bo'lgan shongviy so'l qo'lini durbindan olib, soatiga tez ko'z tashladi. U cho'chib tushdi. Vaqt mo'ljaldan bir daqiqa o'tib ketgandi. Bunisi qanday bo'ldi, yoki u mushakni ko'r may qoldimi?! Ruhan tushkunlikka tusha boshlagan shongviy umidini professor tomonga qaratdi. Agar u ham mushakni ko'r may qolgan bo'lsa, professoring bir qancha kuzatuv-chilarini birortasi bo'lsa-da ko'rishi kerak, balki ular sinovni boshlash oldida turishgandir.

Nuril shongviy ratsiyani olib tugmani bosgandi chiroq yonmadi, bu uning ishlash kuchidan qolganligini bildirardi. Umidsizlangan shongviy tolgan ko'zlarini uqalab qo'yib, chuqur uh tortdi. Endi u uchar likopchani kel-

ganligiga, uning hammani karaxt holga tushirib qo'yadi-gan to'lqinni tarqatganligiga aslo shak keltirmasdi. Shuncha bosh qotirilgan rejalar hech narsaga yaramadi. Juda achinarli hol, agar professor sinovni boshlab yuborgan bo'lsa, «Shafaq» ta'sir ko'rsatolmagan bo'lib chiqardi-da, hamma ish shu bilan tugardi. Endi Malik, Usmon afandi, uchuvchi sog'-salomat qaytib kelishsagina, shuning o'zi zo'r muvaffaqiyat bo'lib qolardi.

Uning qo'li ixtiyorsiz holda yana durbinka bordi. U egri-bugri tog' cho'qqilarini bir aylantirib qarab chiqqandan keyin, uchar likopchani ko'rib qolish umidida, durbinni osmonga to'g'riladi. Ancha uzoq axtardi. Durbin ko'zlarida yum-yumaloq yorug'likni ko'rsatgan edi, u birdan uni quyoshmikin, deb o'ylab qoldi. Ammo, shu zahoti quyoshning orqa yon tomonida ekanligini bilib yanada sinchiklab qaradi. O'zidan ko'z qamashtirgudek kuchli nur chiqarib, olisdan xuddi kuyayotgandek ko'ringan bug' qozoniga o'xhash yorug'lik osmon bo'shlig'iga qarab haraktlanardi. Shongviy uni ko'zdan yo'qtib qo'ymaslikka tirishib kuzatishda davom etdi. Uchar likopcha shumikin? Shongviy oldin uchar likopchani olisdan ikki marta ko'rgandi. U holda u ellips' shaklida ham hozirigidan katta ko'rinarkan. «Ehtimol uning har xil shakldagilari, katta-kichiklari bordir, — deb ko'nglidan o'tkazdi shongviy. Odamlarini qanday qilib olib chiqib ketarkin. Bizning odamlarimiz, hayotmikin. Professorning kashfiyoti ta'sir ko'rsatolmadi, bundan u ruhan tushib ketgandir-a. Lekin, biz oxiri...»

Kichik kissasidagi aloqa apparatining signalini eshitgan shongviyning qo'lidagi durbin yerga tushib ketishiga oz qoldi.

— Shongviy, bormisiz, nega indamayasiz?

Bu professor edi. Hang-mang bo'lib qolgan Nuril shongviy hovliqib qoldi. U professorning ovozini qayta eshitganidan keyin, ratsiyani shoshib qo'liga oldi.

— Men... men eshitayapman hurmatli professor, — dedi u shoshib, — Lekin... siz sinovni boshladizingizmi?

— Boshlaganimga bir daqiqa-yu olti soniya bo'ldi.

— Mushakni ko'ribsiz-da.

— Ko'rdim. Menga qarang, shongviy, siz hozir osmonni kuzatayapsizmi yoki...

¹ Konusimon tekislik bilan kesishishdan hosil bo'ladigan tuxumsion berk egri chiziq.

- Kuzatyapman.
- Biror g'ayri narsani ko'rdingizmi?
- Yumaloq, yorug' bir narsani ko'rdim. Men uni uchar likopchamikin deb o'layapman.
- U uchar likopcha emas.
- Bo'lmasa nima?
- U Ko'ksoy tog'idan chiqqanday bo'ldi. Siz «Ilonli» voqeasida o'g'lim Malikning «olovli shar»ni ko'rganligini eshitgansiz. U paytda «olovli shar» uchar likopchadan kelgan edi, hozir esa yerdan ko'tarilib, uchar likopchaga qarab ketmoqda.

Shongviy esladi. To'g'ri, «Ilonli» voqeasida olovli shar haqida gap bo'lgandi. Keyin o'sha yer tekislanib yuborilgan qo'riqda uchrashgan qariya ham shunday sharni ko'rganligini aytgandi, hozir uning ko'rib turgani ham shunday bir olovli shar edi. Agar u yerdan ko'tarilgan bo'lsa, demak, ularning ma'lum bir yerda yashirib qo'ygan «olovli shar»i bor ekan-da. U holda gulchi chol bilan Zamira va yana Malik bilan Usmon afandi qayerda qoldi?

- Sizga nima bo'ldi, butkul nafasingiz chiqmay qoldi-ku?
- Men rejamizga o'ylamagan joydan suqulib kirgan olovli sharni o'layapman, — dedi shongviy, — U holda uchar likopcha qayerda. Menimcha u tepamizga kelgan bo'lsa kerak.

— Keldi, bir daqiqa avval keldi, ammo ancha balandlikda.

- Nima uchun pastlamaydi?
- Pastladi ham, men bor imkoniyatni ishga soldim, «Shafaq» ta'sirini ko'rsatdi. Uchar likopcha pastlashga jur'at qilolmayotgandek ko'rindi. Hozir «olovli shar»ning ham yuqorilash sur'ati sekinlab qoldi. Siz hali payqamadingizmi?

Nuril shongviy tushundi. Uning professor bilan daxlisiz gaplashib turganligining o'zi ham kashfiyotning kuchi ekanligini isbotlab turardi, g'alaba! Ular uchar likopchani yengdilar.

- Sizni tabriklayman, professor, — Nuril shongviy hursandligidan ich-ichiga sig'may go'dak bolalardek qichqirib yubordi, — biz g'alaba qildik. Sizning «Shafaq»ingiz uchar likopchani yengdi.

— Rahmat. Lekin, tabriklashga hali erta, yana qanday

ishlarning bo'lishini faqat yolg'iz Xudoning o'zi biladi, — dedi professor uning so'zini bo'lib, — siz hozir Ko'ksoga uchoqnimi yoki boshqa bir narsami, xullas nimalar bo'lsa yuboring, odamlarni tutqinlikdan xalos etish kerak.

Nuril shongviy xursandlik va hayajondan o'zini bir nafasga unutib qo'ygandi. U ratsiya orqali darhol buyruq berdi. Ratsiyada uning va qarshi tomonning so'zi hech bir aralashuvsiz juda tiniq eshitilardi. To'la qurollangan odamlarni olgan boshqa ikkita katta mashina shahar ko'chasida katta tezlikda ketayotgandi. Keyin ikkita uchoq ham Ko'ksoy tomonga qarab uchdi. Shongviy toshga aylanib qolganday ko'ringan shaharni jonlantirgan bu ko'rinishlarga mammuniyat bilan qarab turardi. U Usmon afandi, Malik va uchuvchini o'yldi. Gulchi cholning loyiha ega bo'lgandan keyin, ular uchun ahamiyati qolmagan, bu odamlarni birga olib ketmasligiga shongviy ishonardi. Agar ular sog'-salomat qaytib kelsagina, bu safargi harakat va sinovni muvaffaqiyatlari o'tdi, deb aytish mumkin edi. Ammo loyiha ularning qo'liga tushdi. Professor aytganday, endi «Shafaq»ning ahamiyati qolmadi. Ko'ksoya qurollangan odam va uchoqlarni yuborish loyihani kuch bilan tortib olishga urinish edi. Endi bu harakat shongviya kulgili tuyuldi. Uning nazidda «olovli shar» ham uchar likopchadek qudratga ega, faqat uning kichraytirilgan nusxasi edi. Bunday kutilmagan ahvolga duch kelishni o'ylamagan Nuril shongviy ayni shu daqiqada rejani o'zgartirib, «olovli shar»ga muqobil tura olishdek jangovar uchoq guruhini yuborishni o'yldi. Buning uchun armiya bosh shtabining roziligini olish kerak edi. Vaqt esa o'tib borardi, uning ustiga, bunday tavakkalchilikka uning ham unchalik ishonchi yo'q edi.

Ratsiyadan professorning ovozi eshitildi.

— Shongviy, ko'rayapsizmi, «olovli shar» yonayapti.

Nuril shongviy durbin bilan «olovli shar»ni qidirib topdi. U bir joyda to'xtab yonishda davom etardi. Undan yemirilib chiqayotgan yong'in shamol kuchidan bir tomonga surilib, xuddi uchar yulduzga o'xshab qolgandi. Yong'in birdaniga kuchayib har tomonga sochila boshladidi.

Bu dahshatli ko'rinishni ochiq-oydin ko'rib turgan shongviy lift tomonga qarab yugurdi, endi unga bu yerda qiladigan ish qolmagandi.

Usmon afandi uzoqqa cho'zilgan uyqudan uyg'onib, o'zini chordona qurib o'tirgan holatda ko'rди. U yonida o'tirgan ikki odamga va atrofiga nazar tashladi. Oldidagi katta darvoza o'rnidan ochiq g'or og'zidan bo'rtib chiqqan toshlarning silliq yuzi kun nurida qoramtil rangda yarqirab turardi. G'or og'zidan torgina tosh yo'l, tog' yonbag'ridagi ko'm-ko'k archazorlar ko'zga tashlanib turardi. U o'zining cho'nqirda o'tirganini his qildi. Tagidagi gilamga qarab taajjublandi. Qiziq, bu yerga gilam to'shab nima qiladi? Bu savol uning asab torlarini yanada taranglashtirdi. U qo'rquv ichida o'rnidan turib ketdi. Unga ergashib yonidagi ikkala odam ham qo'zg'aldi. Usmon afandi Malikni tanib qoldi. Malik! U bu yerda nima qiladi. Anavi uchuvchiga o'xshagan odam kim, men bu yerga qanday kelib qoldim? Usmon afandi eslashga urinib mushti bilan peshonasiga yengil urdi. U xotiralar ichidan ba'zi ishlarni xuddi tuman ichida ko'rgandek xira esladi. Avval ko'z oldida husn-jamoli tanish bir qiz gavdalandi. To'g'ri, u shunday bir qiz bilan do'stlashgan edi, ismi nimaydi-ya, Zarifamidiye, yo'q, yo'q, Zamira edi. Ha, Zamira!! Ular deyarli har kuni uchrashib turishardi, keyin shu qiz bilan Ko'ksyoda birga tomosha qilgandi. Ular bilan yana kimdir birov ham birga bo'lgandek tuyulardi. U birov kim bo'lidiykin, ismini unutib qo'ygani-chi. Usmon afandi har qancha harakat qilsa-da, sira esga olomadi. U o'zini tush ko'rgandek, uyg'oniboq, tushini unutib qo'ygandek sezardi. Ammo, cho'nqirda turganligi ko'rganlari tush emasligini bildirib turardi.

— Men bilan yuring, — dedi uchuvchilik formasini kiygan odam, — men sizlarni olib ketgani kelganman. Qani tezroq yuraylik.

Ular endigina g'or og'ziga kelishganda, osmondan tushgan olov yana qayta ichkari kirishga majbur qildi. Keyin olov parchalari bir-biri bilan qo'shilib, atrofga yo'yila boshladi. Soy ichi zum o'tmay alanga ichida qoldi. Tandirday qizib borayotgan g'orda endilikda turib bo'lmay qoldi. Ular depsinishardi, o'zlarini har tomonga urishardi. Faqat g'or og'zidan qochib chiqib, o'zlarini alanga girdobiga otishdan boshqa yo'l qolmagandi.

Usmon afandi ust-boshlari kuygan, badanlari tilingan aql-u hushini yo'qotib qo'yish holiga kelib qolgan bo'lishiga qaramay, jon holatida bor kuchi bilan yugur-

di. Olov oqimi uni ta'qib etganday tobora uning izidan quvishda davom etar va oldidan — kutilmaganda yerdan chiqqandek yo'lini to'sardi. Usmon afandi bukchayar, qoqilib yiqilar oldinga intilardi. Olov taftidan qizib ketgan havo tomog'ini bo'g'ib holsizlantirdi. Olovdan boshqasini ko'rmay kelayotgan Usmon afandining ko'z oldi qorong'ilashdi. Boshi aylanib, yer osmon go'yo chirpirak bo'lib aylandi. Oyoqlari titrab, tizzalari bukildi. U gup etib yiqildi, yerni tatalab o'midan turishga tirishi, madori yetmadi. O'lim vahimasida to'lg'anayotgan Usmon afandining og'zidan «Xudo, o'zing shafqatlisan» degan nido chiqib, jim bo'lib qoldi.

U osmonda suzib ketayotganda hushiga keldi. Go'yo burgut bamisoli jo'jani changallab olgandek, kimdir uning qo'ltilqlaridan mahkam qisib olib borardi. Usmon afandi qo'rqib ketdi. Unga ertaklarda yoziladigan g'oyat zo'r burgut uni poloponlariga yem qilish uchun olib ketayotgandek. U bosh ko'tarib qarashga botinolmay, qo'ltilqlaridan tutib turgan narsaga qo'rqbegina qaradi. Oppoq, nozik barmoqlarni ko'rgandan keyin, odam bolasining qushga o'xshab uchishiga juda hayron bo'ldi. Hayrat ichida uchishni biladigan odamning olovdan qutqarib chiqqanligiga ko'zi yetib, xotirjamlik tuydi. U qachondir alanga ichida qolib tush ko'rghanligini uni ko'rolmagan bo'lsa-da, go'zal bir qizning mana shunday qo'ltig'idan tutib qutqarganini esladi.

Usmon afandi pastda ko'p mashinalarning yig'ilib turganligini, odamlarning u yoq-bu yoqqa yugurishib yurganligini ko'rди. Uni ko'tarib uchib ketayotgan odam ham asta-sekin pastlay boshladi. Yerdagilar ham ularni ko'rib qoldi. Bu ajoyib ko'rinishdan dong qotib qolgan odamlar karnaydan yangragan buyruq ovozidan o'zlariga kelib, qurollariga qo'l yogurtirishdi. Uchadigan odam uni bir chetda turgan harbiy boshliqning oldiga keltirib, yengilgina turg'azib qo'ydi.

— Kechirasiz, yanglishmasam siz Nuril shongviy janoblari bo'lasiz shekilli, — dedi qiz harbiy boshliqqa qarab.

— Yanglishmadingiz xonim.

— Men bu odamni olov ichidan qutqarib olib chiqdim.

— Rahmat, bizning yana ikki odamimiz bor edi... — Nuril shongviy gapining oxirini aytolmadi. U qizning

«ularni topolmadik» yoki «ular kuyib ketgandir» deb javob berishidan qo'rqqandi.

— Siz aytmoqchi bo'lgan u ikki odam ham hayot, — dedi qiz gurillab yonayotgan soy ichiga qarab, — biz bu odamlarning olov ichida qolganligini payqab, kutib turgan odamlarimizning yoniga bormay, yo'limizni o'zgartirib bu yerga keldik.

Nuril shongviy yengil nafas olib so'radi:

— Ular haliyam kutib turgan bo'salar kerak?

— Bu unchalik muhim emas, janobi shongviy. Lekin, sizlarning bu harakatinglar bizni urush holatiga keltirib qo'yishi mumkin.

— Kechirasiz xonim, bizda «Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi» degan maqol bor. Sizlar necha o'n yildan buyon bezovta qilib ko'zimizni ochirmadinglar. Bizning bir marta mudofaa uchun qilgan harakatimiz sizlarni urush holatiga keltirib qo'yagan bo'lsa, bu g'oyat adolatsizlik emasmi?

Qiz tomog'ini qirib qo'yib, shongviya lom-mim de-yolmadi.

— Yanglishmasam, siz Zamira xonim bo'lsangiz kerak, — dedi shongviy uning boyta o'zining ismini aytgandek talaffuziga mos qilib.

— «Qiziqarli xabarlar» gazetasining muxbiri bo'laman, — qizning sovuq chehrasiga tabassum yugurdi, — afsuski, siz bu gazetani yoqtirmsiz.

Usmon afandi bu go'zal qizni u Ko'ksoy tomonga yarim burilib qaragandagina tanigandi. Bu qiz uning uyiga kirgan, topshiriq daftarlariqa qiziqqan, so'ng «Semurg» mehmxonasida uchrashib yurgan qizning xuddi o'zginasi edi. U gapirishga tamshandi, ammo osmonda uchishi, olov ichida qolganligi tushida ham namoyon bo'lganligi esiga tushib, qo'rqqanidan tili kalimaga kelmay qoldi.

— Siz menga bir nima demoqchimiz? — dedi qiz unga beparvolik bilan nazar tashlab.

Usmon afandi duduqlanib qoldi:

— Yo'q-yo'q... ha, shunday... Kechiring bekam... m-m, men sizga rahmat...

Malik bilan uchuvchini qo'ltiqlab uchib kelayotgan «gulchi chol» ko'rindi. U ham Zamiraga o'xshab shongviyning oldida to'xtab, qo'ltig'idagi odamlarni yerga

turg'azib qo'ydi. Ammo u qaddini rostlab, shongviyga o'shqira ketdi:

— Bu yana qanday qabohat, darhol professorga aytin, to'lqin tarqatishni to'xtatsin. Yo'qsa, yong'in bu vodiyni kultepaga aylantirib, so'ng shaharga qarab yoyiladi.

Nuril shongviyning qarashlarida istehzoli kulgi o'ynay boshladi.

— Kechirasiz, — dedi vazminlik bilan, — boshimiz ustida o'zga kuchlar bizning osoyishtaligimizga mana shunday tahdid solib turgan bir vaqtida men bunday buyruq berolmayman.

Shongviydan bu tarzda javob olaman, deb o'ylamagan gulchi cholning rangi oqarib ketdi:

— Tentaklik qilmang janob, tabiatni buzib uni izdan chiqarishga har ikkovimizning ham haddimiz yo'q. Tahdid soladigan narsa o'zining boradigan joyiga borib bo'ldi. Janobi professorga tezda xabar bering. Sizlar «Olovli shar» deb atagan narsa shu to'lqinning ta'siridan portlab ketdi. Undan sochilgan yoqilg'i to'lqin ta'sirida kuchayib, balo-yu ofatga aylanadi.

— Men bunga...

— Biz olov ichida qolgan uch odamingizni qutqarib, sizlarga sog'-salomat topshirish, mana shu go'zal tog' bag'rini kuyib ketishdan ogohlantirish uchun yo'limizdan qaytdik. Shuning o'zi sizga kifoya qilmaydimi?

Shongviy ratsiya orqali professorga ahvolni tushuntirdi. Malik va boshqa ikki odamning sog'-salomat qaytib kelganligini aytib uni xotirjam qildi.

— Professor qo'shilgan bo'lsa, — dedi gulchi chol soy ichidan tortib to tog' cho'qqilarigacha ko'tarilgan yong'indan ko'z uzmay, — endi o't o'chirish guruhingizza xabar bering, qancha tez kelsa shuncha yaxshi. Yerdan, osmondan bir yo'la ishga kirishsin.

Uning taklifi o'rinali edi. Shongviy bu ishni ham bajarib bo'lgandan keyin qiziqib so'radi:

— Tushunolmadim, sizni bizning ishlarimiz uchun bunchalik mas'ul, deb o'ylamagan ekanman.

Gulchi chol unga mixday qadalib turib javob berdi:

— Biz ham sizlar kabi Olloh tomonidan yaratilgan insonlarmiz. Ollohning qudrati bilan bunyod etilgan tabiatni izdan chiqarish, odamlarga ziyon-zahmat yetkazish kechirib bo'lmaydigan jinoyatdir.

— U holda uch odamimizni garovga olganinglarni qanday tushunmoq kerak:

— Bu bir tadbir. Biz texnik masalada bizga ma'lum bo'lgan har qanday bir sayyorani bizdan ustun turishini xohlamaymiz. Shu orqali hayotimiz va turmushimizning xavfsizligini kafolatlay olamiz, — u birdaniga achchiqlanib ketdi, — janobi shongviy siz shartga amal qilmadingiz, men bunday bo'llishini aslo kutmagandim.

— Siz nimani nazarda tutayapsiz? Nuril shongviyning qoshlari yuqori ko'tarildi. U gulchi cholning so'zini yaxshi tushunib yetmagandi.

— Shart bo'yicha sizlar odamlarni sog'-salomat olishinglar, biz ham daxsiz holda qaytib ketishimiz kerak edi. Biz va'damizni ado etib, odamlaringizni biz turgan joyda qoldirib ketdik, sizlar esa bizga ovoragarchilik topib berdinglar.

Nuril shongviy zaharxandalik bilan kulib qo'yib dedi:

— Biz shart bo'yicha ish tutdik. Sizlar loyihaning asl nusxasini oldinglar, bu bizning va'damizda turganligimiz emasmi? Endi, keyingi ishlarga kelsak, loyiha bizning qo'limizdagи vaqtda, sizlar uni o'g'irlash uchun juda qo'pol usullarni qo'llashdan qaytmadinglar. Bizning qo'riqxonamizni garchi u tashlandiq bo'lsa-da, sizlar tomonidan butunlay portlatib yuborildi. U yerda yashaydigan jonivorlar ham butunlay yo'qolib ketdi. Shu bir parcha yerda endi uzoq yillargacha giyoh ham unmasligi kundek ayon. Bu ekologik buzg'unchilik emasmi? Sizlar 3-yni portillatib ziyon keltirdinglar, maqsadga yetolmaganidan keyin tuban usulni qo'lladinglar. Natijada xotirjamligimizga darz ketdi, tog', dov-daraxtlarimiz kuydi, odamlarimizning hayoti ham havf ostida qoldi. Sizlar shunday ishlarni qilgan bir vaqtda biz qo'limizdan chiqib ketayotgan loyihani, ya'ni o'zimizning narsamizni qutqarib qolish maqsadida harakat qilmay tek o'tirishimiz kerakmidi? Biz ham o'z tadbirimizni qo'lladik va shunday qilishga o'zimizni har jihatdan haqli deb hisoblaymiz, hurmatli taqsir, — Nuril shongviy tilining uchiga kelib qolgan «gulchi chol» degan so'zni yutub yubordi. Unga bu tashqi sayyora odamini unday atash noqulay tuyulardi.

— O'h-ho'-o', janobi shongviy, men sizni harbiy odam, so'zga unchalik mohir emas, deb o'ylagan ekanman. Sizga qoyil qoldim. Rostini aytsam, siz aytgan



tomonlarini chuqur o'ylab ko'magan ekanman, — u qanday tez achchiqlangan bo'lsa, xuddi shunday tez jahdan tushdi, — siz janobi professorga mening uni tabriklaganligimni, yetkazib qo'ying. Ha, yana shu narsani ham qo'shib qo'yishni lozim topamanki, sizlarning bu g'alabalaring tasodifiy, vaqtinchalikdir deb aytishga to'g'ri keladi. Bizning bunday yuksak texnika bilan shug'ullanayotganimizga necha o'n asr bo'lib qolgan. Biz baribir sizlardan ustunlikka egamiz.

— Ehtimol shundaydir. Ba'zi kashfiyotlar tasodifiylikdan yuzaga keladi. Bizning yuqori darajali texnika bilan shug'ullanayotganimizga bor-yo'g'i bir asr bo'lib qoldi. Biz bu qisqa vaqt ichida necha o'n asrlar mobaynida qudratli deb qaralgan kuchni chekintiroldik. Sizlar bu nuqtani yaxshi bilasizlar. Shu bois loyiha sizlar qiziqadigan angushtar bo'lib qoldi.

Gulchi chol shongviya ancha vaqtgacha tikilib turdi. Uning ifodasiz yuzidan yo achchiqlanganligini, yoki qoyil qolganligini anglab bo'lmasdi.

Sakkiz-o'n chog'li uchoqlar ularning boshi uzra guvillab uchib, o'tib ketdi. Olisdan yong'inni o'chirish mashinalarining signali eshitildi. Nuril shongviy Zamira xonimga yuzlandi.

— Zamira xonim, — dedi u takalluf bilan, — sizdan bir narsani so'rasam bo'larmikin?..

— Rahmat, — Zamira nozli bir harakat bilan qoshlarini uchirdi, — agar shongviy afandini rozi qilolsam, o'zimni g'oyat shod his etgan bo'lardim.

— Bu ishlarga aloqasi bo'limgan Usmon afandini tanlash sizga nega kerak bo'lib qoldi? Kechirasiz, agar bu tanlashning nozik, ishqiy tomonlari bo'lsa javob bermasligingiz ham mumkin.

Zamira boshini orqaroqqa tashlab chunonam qahqahlab kuldiki, bu kulgi ovozi yetib kelgan o't o'chirish mashinalarining gurillashlari ichida ham alohida jaranglab eshitildi.

— Menga uning xayolparsatligi yoqib qoldi, dedi u kulgidan to'xtab, — siz mening kulgimni yana boshqacha o'ylab yurmang shongviy afandim. O'zingiz ko'z oldingizga bir keltirib ko'ring, XXI asrda bolalarga topshiriq ishlatib, topshiriq daftalarini tekshirib o'tirish sizga huzurli bilinmaydimi? Meni qiziqtirgani, albatta, bu emas. Biz dastlab loyihani o'g'irlab chiqib, «Ilonli»ga

yashirib qo'ygan edik. Odamlarimiz loyihani u yerdan topolmadi. Bizga loyihani bizdan avval bir odamning olib ketganligi ma'lum bo'ldi. Bu odam kim? Biz har xil mulohazalardan keyin, uni tekshirdik, taddiqot idorasidagilardan biri sezib qolib, izimizdan borib loyihani topib olib qaytarib kelgan, degan xulosaga keldik. Men o'sha kunlarda «Sirli signal» degan hikoyani o'qib qoldim. Undagi voqeа boshqalarga fantastik tuyg'u bersa, biz uchun aynan haqqoniy ish edi. «Ilonlik» voqeasini o'z ko'zi bilan ko'rgandek juda aniq-tiniq yozgan bu muallif menda, «ehtimol bu odam shu ishlarni bilsa kerak», degan shubha paydo qildi. U odam bilan tanishib qo'yishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Ikkinci galadagi harakatimiz foydali bo'ldi. Men Usmon afandi bilan tanishib, loyihani olib ketgan bolaning professorning o'g'i Malik ekanligini bildim. Shundan keyin bizning garovga olish rejamiz shakllandi. Usmon afandi bizga Malikni yetkazib berishda g'oyat yaxshi xizmat qildi.

Shongviy, bu to'g'ri javobga faqat «rahmat» degan bir og'iz so'zni aytish bilangina cheklandi.

— Bizni nima qilishni o'layapsiz janobi shongviy? — deb to'satdan so'rab qoldi gulchi chol, — qamoqqa olmoqchimisiz? Biz hukumatingizning har qanday jazosini rozilik bilan qabul qilamiz.

Nuril shongviy ularni nima qilish kerakligi haqida hali o'ylab ko'rmagandi. Gulchi cholning «... qamoqqa olmoqchimisiz» degan so'ziga yashiringan ta'na uning g'ururiga tegdi. Unda birdaniga g'oliblarga xos mag'rurlik, mag'lubni esa, pisand etmaydigan takabburlik paydo bo'ldi.

— Bizning qamash niyatimiz yo'q, — dedi u keskinlik bilan, — sizlar oxirgi daqiqalarda odamlarmizni qaytarib berib to'g'ri ish qildinglar. Biz bunday ishni qadr laymiz. Sizlar hozirdan boshlab o'zinglarni erkin his qilaverishinglar mumkin. Shaharga qaytmoqchi bo'l sanglar yetkazib qo'yamiz. Boshqa hojatinglar bo'lsa ham qo'limizdan kelgancha yordamlashamiz. Biz sizlar bilan do'stona munosabatda bo'lishni istaymiz.

Gulchi cholning chiroyi bir o'zgarib asliga keldi.

— Himmatingiz uchun rahmat, — dedi u bo'shginga, — yordam kerak emas, o'zimiz amalini qila olamiz.

Mashinada kelayotgan shongviy o'zining oxirgi qaroridan aslo afsuslanmadidi. U ularga ozodlik berib, ularni



har qanday mustahkam qamoqdan ham bemałol chiqib keta oladigan sehrlı kuchini namoyish qilish fursatidan mahrum qildi. U bu tasavvurni gulchi cholning bir zumga o'zgargan chiroyidan bilib olgan edi.

Shongviy ko'tarinki ruhda xursand edi. Loyihaning asl nusxasi «olovli shar» da kuyib ketdi. Ular loyihaga ega bo'lomadi. Professor ertaga «Xalqaro ilm-fan uyushmasi»da o'z kashfiyotini, ham uning qudratli kuchini butun olamga tantana bilan e'lon qila oladi. Professorga endi kashfiyotning kuydirish xususiyatini boshqatdan tadqiq etishga to'g'ri kelardi. Mana shu mavzuda kelgusida odamlar uchun yana bir «mo'jiza»ning maydonga chiqishini umid qilish mumkin edi. Nuril shongviya shularni o'ylash va ko'z oldiga keltirish huzur bag'ishlardi. Uning xayoli o'zi qilayotgan ish ustiga ko'chganda, kulimsirab turgan chehrasi o'zgarib, tutash qoshlari turlandi. U o'zining o'zga sayyora odamlarining harakatini kuzatishda tilga olgudek biror ish qilolmaganligini yaxshi tushunardi. U faqat tavakkal qilishga jur'at qila oldi. Bu xuddi talay sinovlar bir so'mlik lotoreya biletini olib, kutilmaganda mashinaga ega bo'lib qolgandek bir ish edi. Nuril shongviy ko'p sinovlarni yoqtirmasdi. O'zga sayyora odamlaridek bunday kuchli raqibga muqobil turishda aql-farosatga, eng yuqori texnikaga tayanish ishonchli edi.

U professorni eslab mammuniyat bilan kulimsiradi. «Ana shunday olimlarimiz ko'proq bo'lsa, biz o'zimizni dunyoda ham, samoviy olam bo'shilg'ida ham bexatar his qilgan bo'lardik» deb o'yldardi u. Shunday, insonlarning xavf-xatar ichida yashayotganligi ayni haqiqat edi. Insonlar o'zlariga g'oyibdan keladigan tahdiddan saqlanish uchun hali yana ko'p ishlarni qilishiga to'g'ri kelardi. Bu Nuril shongviyning bir haftaga yetmagan vaqt ichida boshidan kechirgan amaliyotidan chiqargan xulosasi edi.

SULTON HOSHIM

ILONLI QO'RIQ

Qissa

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrir *Erkin Malik*
Badiyy muharrir *Bahrom Bobojonov*
Rassom *Obidjon Burhonov*
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*
Sahifalovchi *M. Atcamova*
Musahhihlar *J. Tairova, M. Ziyamuhamedova*

Terishga berildi 28.09.2005. Bosishga ruxsat etildi 6.02.2006. Bichimi
84x108 1/11 Tayms garniturasi. Ofset bosma. Sharqli bosma tabog'i 3,36.
Nashriyot-hisob tabog'i 3,83. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 1876. Bahosi
kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.